

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

PEDAGOGIKA - PSIXOLOGIYA FAKUL'TETI

PEDAGOGIKA - PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
Pedagogika - psixologiya fakul'teti dekani
_____ prof.X.A.Meliyev
“ _____ ” _____ 2012 y.

**5140800 – Pedagogika – psixologiya yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun**

**“O'QUVCHILARDA PSIXOKORREKTSION FAOLIYAT
MAZMUNI VA TAMOIYILLARI”
MAVZUSIDA BAJARILGAN**

BITI RUV MALAKAVIY ISH

Bajaruvchi: Jo'rayev Nuriddin Abdumajitovich
404 gurux talabasi
Ilmiy rahbar: dots. To'laganova G.Q.

Ishni himoyaga tavsiya etaman dots. To'laganova G.Q.

(imzo)

BMI Pedagogika - psixologiya kafedrasi
yig'ilishining qarori bilan (Qaror №1, 28.08.2012y)
himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: p.f.n. Aliqulova M.M.

(imzo)

JIZZAX - 2012

MUNDARIJA

KIRISH	3
I ANOMAL RIVOJLANGAN SHAXSLAR BILAN BOB. KORREKTSION TARBIYAVIY ISHLAR PSIXOLOGIYASINING ASOSLARI	8
1.1. Maxsus psixologiya asoslarini o'rganishning nazariy va amaliy ahamiyati	8
1.2. Anomal rivojlangan shaxslar korreksion-tarbiyaviy ishlari tamoyillari	13
1.3. Nuqsonli bolalar nutqining psixologik xususiyatlari Birinchi bobga doir xulosa	23
II ANOMAL SHAXSLAR BILAN OLIB BORILADIGAN BOB. REABLITASIYA VA IJTIMOIIY ISHLAR XUSUSIYATLARI	32
2.1. Anomal shaxslar kategoriyalariga tavsifnoma	32
2.2. Anomal rivojlangan shaxslar bilan reabilitasiya va ijtimoiy ish xususiyatlari tamoyillari	37
2.3. Anomal rivojlanish tadqiqotlarning o'ziga xos diagnostikasi Ikkinchi bobga doir xulosa	46
UMUMIY XULOSA VA TAQLIFLAR	56
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	60
ILOVALAR	64

KIRISH

Muammoning dolzarbligi. Anomal rivojlangan shaxslar bilan korreksion tarbiyaviy ishlarning mazmuni hozirgi davrda ta'limda amalga oshirilayotgan islohatlar bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu mavzuning dolzarbligi yosh avlodning tarbiyasi, barkamol avlodni shakllantirish bilan chambarchasligidadir. Barkamol yoshlarni shakllantirish, tarbiyalash ularning mamlakatda o'tkazilayotgan islohatlardagi faol ishtirokini ham taqoza qiladi.

Shuningdek ushbu ilmiy muammoning dolzarbligi ta'lim va tarbiya jarayonida uchrayotgan ba'zi muammolarni chuqur ilmiy tahlil qilishni talab qiladi. Mavzuning dolzarbligi shu bilan xarakterlanadiki, chunki bu masala bolalar tarbiyasi, ularning kelajagi bilan bog'liqdir.

Maxsus psixologiya asoslari psixologiya fanining bir soxasi bo'lib hisoblanadi. Uning yakunlari psixologiya va psixatriya uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Shu sababli patopsixologiya fanlarning chegaralash bo'lib xisoblanadi. Xozirgi vaqtda maxsus psixologiyada saralash soxalarning shakllanishi intensiv jarayonga aylangan. Psixologiyada shu umumiy sabablarga yanada bir holat inson faktorlarining roli ko'shiladi. Tahlillardan ma'lum bo'ldiki, to'plagan shaxsiy pedagogika, meditsina, texnika muammolari insoniylik faktorini xisobga olmay turib, yechish mumkin emas.

Psixologik saralash fanning chegaralanish tarmoklari o'zining asosiy qismidan bo'linib chikkan va uning asosiy qonunlariga buysunadi. Injenerlik va sotsial psixologiya singari patopsixologiya psixik bilimdir. Uning asosiy muammosini umumiy psixologiya holati va rivojlanishidan bir bo'lak holatda qarash bulmaydi. Patopsixologiya psixologiya degan xolatni tan olish, ularning predmetni aniqlaydi va uni psixatriya predmetidan ajratadi. Psixatriya medisining boshka tarmoqlari singari psixik bemorlarning sabablarini aniqlash u yoki bu kasalning sindrom va simptomlarini tadkik qilish bemorni kuzatish kriteriyalarini analiqlash kasallikni davolash va uni

profilktikalashga yunaltirilgan. Patopsixologiya psixologiya fani sifatida psixikaning normal xolati sifatida, uning rivojlantirish qonuniyatlaridan va strukturasidan kelib chiqadi. Maxsus psixologiya odam miyasining gavdalantirash xizmatining buzilish qonuniyatlarini odam shaxsning psixik ko'rsatishlari va psixik xizmatining tarqalish qonuniyatlarini psixik jaryonlarining normal xolatda shakllanishi va kechishi bilan solishtirish turda o'rgatiladi.

Demak, patopsixologiya va psixiatriya tadqiqot ob'yektlari uning yaqinligiga qaramasdan ularning predmeti sifatida ajralib turadi. Shu xolatni unutish yoki patopsixologiya psixologik fan ekanligini xisobga olmaslik, fanning bu soxasida chegaralarning aralashib ketishiga patopsixologiya predmetining almashtirilishiga olib keladi.

Maxsus psixologiya asoslari o'z predmeti o'z metodlari va tushunchlari bilan yechish kerak bo'lgan muammolar va masalalar psixiatr kompetensiyasidagi muammo va masalalar bilan tadqiqotlar natijalari o'zgacha ahamiyatga ega. Psixikaning rivojlanishida biologik va ahamiyati katta. Psixikaning rivojlanishi va tarqalishi muoammosi uchun xam muhimdir. Patopsixologiklik tadqiqotlarning natijasi bu ko'z qarashning notug'ri ekanligini ko'rsatdi. Sechenov-Pavlov ta'limotlari buyicha psixik jarayonlar shartli reflekslar asosida shakllanadi. L.S.Vigotskiy, A.N.Lentik odam uchun «Ijtimoiy meros» xos ekanligini taxmin qiladi. Bu taxminni genetik Dubinin ko'llab quvvatladi. Boshqacha aytganda psixikaning rivojlanishi ijtimoiy faktorlarning ta'sirida shakllanadi.

Kasallik biologik qonuniyatlar buyicha davom etib anomal psixikaning shakllanishiga sharoitlar tug'diradi. Shuning uchun ham patopsixologiya oldida xar xil masalalar vujudga keladi. Psixologik eksperiment natijalari differensial diagnostikalik maqsadlar uchun qo'llanilishi mumkin. Eksperimental patopsixologiyaning ko'rsatkichlari

psixiatriyalik ekspertiza (mexnat sud ekspertizasi xarbiy ekspertiza masalalarini yechishda ahamiyatga ega) kichik bolalar psixiatriyalik klinikasida patopsixologiyalik eksperiment ahamiyati bor. Hozirgi davrda psixologik kuzatishga tabiiy bilimlar metodlari qo'lanila boshlandi. Vundtning eksperimental metodlari psixiatrik klinikalarga Fransiyadagi eng yirik Krepelin klinikasi kiradi, shuningdek o'z davrida eksperimental psixologik laboratoriyalar Rossiyada xam ochildi. Kozonda Bextero, Moskvada Karsakov, Kiyevda I.A. Sikovskiy laboratoriyalari XX asr boshida ish yurita boshlagan, natijada psixolog olimlar psixologiya fannining yangi soxasi paydo bulishi haqida so'z yurita boshladilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "...shu nuqtai nazardan qaraganda, jamiyatni modernizasyalash davrida jamiyat a'zolarining o'z salohiyati va iste'dodini ro'yobga chiqarishi uchun ularga birinchi galda teng imkoniyat va erkinlik muhitini, ham qonuniy, ham amaliy shart sharoitlarni yaratib berish zarur"¹. Prezidentimizning ushbu metodologik ahamiyatga ega bo'lgan tavsiya ham bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligidan dalolat beradi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: anomal rivojlangan shaxslar bilan korreksion tarbiyaviy ishlarning mazmuni, maqsadi va ahamiyatini o'rganish.

Tadqiqotning ob'yekti: anomal rivojlangan shaxslar bilan korreksion tarbiyaviy ishlarning ko'lami va ushbu jarayonning psixologik xususiyatlarini mustaqil mavzu sifatida bitiruv malakaviy ish hajmida tadqiq qilish.

Tadqiqotning predmeti: anomal rivojlangan shaxslar bilan korreksion tarbiyaviy ishlar jarayonida psixologik ta'lim va tarbiya uyg'unlashuvining mazmuni va mohiyatining mustaqil tahlili.

Bitiruv malakaviy ishning vazifasi:

- maxsus psixologiya asoslarini o'rganishning nazariy va amaliy ahamiyatini tahlil qilish, va ushbu vazifaning ilmiy psixologik muammo ekanligini nazariy jihatdan asoslash;

¹ Каримов И.А. Юсак маънавият -енгилмас куч. Тошкент, "Маънавият", 2008, Б.68.

- nuqsonli bolalar nutqining psixologik xususiyatlarini o'rganish;
- anomal rivojlangan shaxslar korreksion-tarbiyaviy ishlari tamoyillarining tahlili;
- anomal shaxslar kategoriyalariga tavsifnomasining psixologik jihatlarini aniqlash;
- anomal rivojlangan shaxslar bilan reabilitasiya va ijtimoiy ishlarning xususiyatlari tamoyillaridagi psixologik jarayonining ilmiy amaliy jihatlarini tadqiq qilish.
- anomal rivojlanish tadqiqotlarning o'ziga xos diagnostikasini o'ziga xos tomonlarini o'rganish.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy metodologik asosini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlari, farmonlari, qarorlari, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Vazirlar mahkamasining pedagogik ta'limga doir qarorlari, O'zbekiston Respublikasida amal qiladigan uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimining nazariy asoslari, qonuniyat va tamoyillari, o'ziga xos yo'nalishlari ta'lim-tarbiya jarayonining shakllanishi, psixologiya fani taraqqiyoti bosqichlarini o'rgatuvchi psixologik fanlar bo'yicha to'plangan materiallar tashkil qiladi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi; mavzuning ilmiy psixologik ilmiy manbalar asosida muallif tomonidan mustaqil o'rganilganligi, mavzu dorasida ushbu dolzarb psixologik muommoning tahlil qilinganligi, bitiruv malakaviy ishning xulosa va tavsiyalaridan, muallifning shaxsiy mulohazalaridan psixologlar, maktab o'qituvchilari tomonidan talabalar orasida olib boriladigan psixologik yo'nalishdagi tadbirlarda, foydalanish mumkinligi tashkil qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi: tajriba-sinov ishlari Jizzax shahridagi A.Navoiy nomidagi 3-sonli umumta'lim maktablarida va Huquqshunoslik kollejlarida olib borildi, bitiruv malakaviy ish muallifi tomonidan amaliyot davomida o'quvchilar orasida olib borilgan suhbatlar, tarbiyaviy yo'nalishdagi tadbirlardan foydalanildi.

Ishning birinchi bobi anomal rivojlangan shaxslar bilan korreksion tarbiyaviy ishlar psixologiyasining asoslari deb nomlangan. Ushbu bobda ishning

muallifi psixolog maxsus psixologiya asoslarini o'rganishning nazariy va amaliy ahamiyati, anomal rivojlangan shaxslar korreksion-tarbiyaviy ishlari tamoyillari, nuqsonli bolalar nutqining psixologik xususiyatlari ik muammolarini ilmiy o'rgangan.

Ishning ikkinchi bobi anomal shaxslar bilan olib boriladigan reabilitasiya va ijtimoiy ishlar xususiyatlari deb nomlangan. Ushbu bobda muallif anomal shaxslar kategoriyalariga tavsifnoma, anomal rivojlangan shaxslar bilan reabilitasiya va ijtimoiy ish xususiyatlari tamoyillari, anomal rivojlanish tadqiqotlarning o'ziga xos diagnostikasi masalalarini o'rgangan.

Bitiruv malakaviy ish kirish, ikki bob, olti paragraf, xulosa va taqliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan.

I – BOB. ANOMAL RIVOJLANGAN SHAXSLAR BILAN KORREKTSION TARBIYAVIY ISHLAR PSIXOLOGIYASINING ASOSLARI

1.1. Maxsus psixologiya asoslarini o'rganishning nazariy va amaliy ahamiyati

Maxsus psixologiya asoslari psixologiya ilimining bir soxasi bo'lib hisoblanadi. Uning xulosalari psixologiya va psixatriya uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Shu sababli patopsixologiya fanlarning chegaralash bo'lib xisoblanaib, hozirgi vaqtda fanda predmetlararo (saralash)soxalarning shakllinishi intensiv jarayonga aylangan. Ma'lumki fanda bioxiimiya, biofizika, ximik radiologiya,tarmoqlari bor. Bunday asosiy fandan bo'linib chikish jarayonining psixologiyaga xam xos injenerlik bolalik, pedagogika va sotsial psixolgiya neyropsixologiya patopsixologiya va boshqa soxalari bor. Fandagi chegaralash soxalarining bo'linib chikish jarayonlarini kuplagining sabablari bor. Eng bosh sababi ilmiy texnika progressdir. Psixologiyada shu umimuy sabablarga yanada bir sabab inson faktorlarining roli ko'shiladi. Shu aniq bo'ldiki, shaxsiy pedagogika, medisina, texnika muammolari inson faktorini xisobga olmay turib, yechish mumkin emas.

Fanlararo yoki saralash ilmning chegaralanish tarmoklari o'zining asosiy qismidan bo'linib chikkan. Uning asosiy qonunlariga bo'ysunadi. Injenerlik va sotsial psixologiya singari patopsixologiya psixik fan bo'lib, xisoblanadi. Uning muammosini kelajagini umumiy psixologik xolati va rivojlanishidan bir bo'lak sifatida qarash bo'lmaydi. Maxsus psixologiya asoslari psixologiya fani degan xolatni tan olish, ularning predmetini aniqlaydi va uni psixatriya predmetidan ajratadi. Psixatriya medisina boshka tarmoklari singari psixik bemorlarning sabablarini aniqlash u yoki bu kasalning sindrom va simptomlarini tatkik qilish bemorni kuzatish kriteriyalarini analizlash, kasallikni davolash va uni profilaktikasiga yunaltirilgan. Maxsus psixologiya asoslari psixologik fan sifatida psixikaning normal xolatiga rivojlantirish qonuniyatlaridan va tizimidan kelib chiqadi. Maxsus psixologiya asoslari odam miyasining gavdalan tirash xizmatining buzilish qonuniyatlarinini odam shaxsning psixik ko'rsatgichlari va psixik

xizmatining tarqalish qonuniyatlarini psixik jaryonlarining normal xolatda shakllanishi va kechishi bilan solishtirish orqali o'rgatiladi.

Demak, patopsixologiya va psixiatriya tadqiqot ob'ektlari uning yaqinligiga qaramasdan ularning predmeti sifatida ajralib turadi. Shu xolatni unutish yoki patopsixologiya psixologiya fan ekanligini xisobga olmaslik, fanning bu sohasida chegaralarning aralashib ketishiga maxsus psixologiya asoslari predmetining almashtirilishiga olib keladi.

Maxsus psixologiya asoslari o'z predmeti o'z metodlari va o'z tushunchlari bilan yechish kerak bo'lgan muammolar va masalalar psixiatr kompensiyasidagi muammo va masalalar bilan tadqiqotlar natijalari o'zgacha axamiyatga ega. Psixikaning rivojlanishida biologik va axamiyati katta. Psixikaning rivojlanishi va tarqalishi muoammosi uchun xam muhim axamiyatga ega. Masalan chet el psixologlari psixikaning tarqalishi miyaning keksayishi yoki kasallanishiga bog'liq deb xisobladi. Patopsixologiklik tadqiqotlarning natijasi bu qarashning noto'g'ri ekanligini ko'rsatdi. Sechenov-Pavlov ta'limotlari buyicha psixikalik prosesslar shartli refleklar asosida shakllanadi. L.S.Vigotskiy, A.N.Lentik odam uchun «Ijtimoiy meros» xos ekanligini taxmin qildi. Bu taxminni genetik Dubinen qo'llab quvvatladi. Boshqacha aytganda psixikaning rivojlanishi ijtimoiy faktorlarning ta'sirida shakllanadi.

Kasallik biologik qonuniyatlar buyicha davom etib anomal psixikaning shakllanishiga sharoitlar tug'diradi. Patopsixologiya oldida turli xil ijtimoiy masalalar turibdi. Psixologik eksperiment natijalari differensial diagnostikalik maqsadlar uchun qo'llanganligi mumkin. Eksperimental patopsixologiyaning ko'rsatkichlari psixiatriyalik ekspertiza (mexnat sud ekspertizasi xarbiy ekspertiza masalalarini yechishda axamiyatga ega) kichik bolalar psixiatriyalik klinikasida patopsixologiyalik eksperiment axamiyati katta. Masalan: maxsus maktablarda saylab olish yoki korreksiyalash (masalan uyin terapiyasi orqali). Maxsus psixologiya asoslari tarixi psixiatriya nevrologiya va eksperimental psixologiyaning rivojlanishi bilan bog'liq. XX-asr oxirida psixologiya kuzatishga tabiiy ilmlar metodlari kirgizila boshladi. Vundtning eksperimental metodlari

psixiatriya lik klinikalariga Krepelin klinikasi Fransiyadagi eng yirik klinika eksperimental psixologik laboratoriyalar Rossiyada xam ochildi. Kozonda Bextarov (1885)Moskvada Karsakov (1886) Kiyevda I.A. Sikovskiy laboratoriyalari XX asr boshida olimlar psixologik fanning yangi sohasining paydo bulishi haqida so'z yurita boshladi. Patopsixologiya buyicha dastlabki asarlarda Shved olimi Shterring :Patopsixologiya;, va boshka olimlarning kupgina psixologiya xaqidagi kitoblari paydo bo'ldi.

Xar qanday psixologiyalik fanlar singari patopsixologiya eksperiment metodidan foydalanadi. Patopsixologiyalik eksperimentning aloxidaligi tushintirish uchun umumiy psixologiya tadqiqotlari metodlariga to'xtab o'tamiz. Eksperiment metodi psixologiyani tushinishda to'g'ridan-to'g'ri aloxida yul bo'lib xisoblanmaydi. U psixologiyaning aniq fanlar singari rivojlanishiga ko'ra va ularning umumiy nazariy xolatlari bilan bog'lanishda asosiy o'ringa ega.

Malum bo'lganidek, psixolog rasionolizatorlar xar biri tashkaridan olgan materiallarni o'zicha kayta ishlay oladigan inson psixikasidagi ayrim ruxiy rivojlanganliklarning bo'linganiga qaratilgan. Patopsixologiya shu rivojlanishlarning faoliyatini tasvirlashga qaratilgan. Insonning ichki dunesi o'y-fikrlar bilan tasvirlash faqatgina rasionalizatorlarda aniq ko'ringani yuk.

U shunday tushunuvchi psixologlar deb ataluvchi guruxlarda xam o'z o'rnini topdi. Psixikani xar xil jarayonlarga yoki funktsiyalarga bo'linishini bekorlab o'tirib psixikalik birlikni bo'linmasligini tan olib shu guruxning a'zolari psixikalik ilmiy tadqiqotlardan bosh tortdi. Tug'ma iste'dod son o'lchami jarayonlari psixiatriya va nevrologiya klinikalarining psixologik metod tadqiqotlari asosiga kiritildi.

Aqli zaiflikni keltirib chiqaradigan sabab-okibat xususiyatlari endogen va ekzogen xususiyatlarga ega. Aqli zaiflikning moxiyatini nuqsonning moddiy asosi bog'liq bo'lib, bosh miyaning organik buzilishini ko'rsatadi. Boshkacha aytganda aqli zaiflikning moddiy sifatida kasallangan bosh miya e'tirof etiladi. Bu kasallik sabab-okibati natijasida bolaning bilish faoliyatlari keng ma'noda buzilib, aqliy rivojlanish tezligi, samaradarligi pasayadi. Bosh miya kasalliklari sababini kelib

chikishiga ko'ra endogen vv ekzogen sabablarga bo'lishimiz mumkin. Aqli zaiflikni keltirib chiqaruvchi sabablar turli ilmiy, uslubiy, psixo-pedagogik va tibbiy adabiyetlarda turlicha bayen etiladi. Buni kuydagicha ifodalashimiz mumkin.

1. Xomila davrida turli salbiy ta'sir etuvchi infeksiya, intoksikasiya (infeksiyaning kuchayishi, organizm xolsizlanishi)

2. Tug'ilish vaqtidagi jaroxat asfiksiya.

3. Chaqoloqning ilk yoshiga salbiy ta'sir etuvchi yukumli intoksikasiya, ovqatlanishning buzilishi, tashki ta'sir (ekologiya).

4. Turli irsiy yul bilan avloddan-avlodga o'tadigan gen, xromosoma kasalliklari. Aqli zaif bolalar bosh miyasi chuqur zararlanganligi sababli barcha oliy asab faoliyatlari buzilgan bo'ladi. Patologik buzilishlar bosh miyaning ko'zg'olish va tormozlanish jarayonlarida xam o'z aksini topadi. Aqli zaif bola faoliyatlarida tashabbuskorlik, mustaqillika intilish kabi shaxsiy xislatlar bulmaydi. O'zlarining mustaqil ishlarini aqliy jixatdan tushuntirib bera olmaydilar. Ommoviy maktab o'quvchilari orasida oligofren bolalar uchrab turadi, ularning aqliy jixatdan o'smaganligi ona qornida bo'lgan davrida muayyan miya sistemalarining yoki xayotining ilk davrida tashki zararli ta'sirlar sabab bo'lgan.

Onaning xomiladorlik paytida yukumli kasalliklarga yo'likish, ogir virusli gripp, tif, qizilcha va ona organizmidagi turli parazitlarning xomilaga yukishi toksiplazmoz, xomilaning ishkastlanishi, ota-onaning spirt ichimliklar iste'mol qilishi alkogolizm shu faktorlar jumlasiga kiradi.

Tug'ilish vaqtida bolaning kiskich bilan sug'irib olinishi, vakum bilan tug'ilgan vaqti cho'zilib ketsa yoki tez tug'ilish bo'lganda oligofreniyaga sabab bo'lishi mumkin.

Oligofreniya ba'zan bola tug'ilgandan sung bir yoshga yaqin bo'lishi okibatida xam vujudga kelishi mumkin. Bunday kasalliklar jumlasiga miya va uning pustlig'ini shamollashi, (menengit) va markaziy nerv sistemasining shikastlanishi kiradi. Oligofreniya nasil orqali xam o'tadi. Shuningdek, ona bilan bolaning qon tarkibidagi bir-biriga to'g'ri kelmasligi rezus faktorlar xam sabab bo'ladi.

Ruxiy kasalliklardan aqli zaiflarni F.Platter ajratdi. Hozirgi vaqtda yordamchi maktablarda asosan aqli zaiflikning yengil darajasi debil bolalar ta'lim oladilar. Aqliy nuqsonning chuqurligiga qarab oligofreniyani 3-darajaga ajratadi:

1)Debil birmuncha yengil darajada bo'lib, oligofreniyaning eng ko'p tarqalgan darajasi. Yordamchi maktablarla asosiy shu bolalar saralanadi.

2) Imbisillik- debil darajada bir muncha daraja.

3) Idiot – oligofreniyaning eng og'ir darajasi bo'lib ular idroklarda ko'pol, rivojlanmaganlik yakkol ko'rinib turadi. Imbesill bolalarning fikrlash jarayonlari juda past darajada bo'ladi. Aqli zaiflik deganda-myoriy ruxiy rivojlanishdan chetlashib, haqiqiy, real aqliy nuqsonlikka olib keluvchi holat tushuniladi.Ta'lim jarayonida aqli zaif bolaning taffakuri, nutqi, qiziqishlari, bilish qobiliyatlarining rivojlanishi bilan bog'liq xolda u axloqiy xam rivojlanib boradi. Yordamchi maktablarda o'qishni tugatish arafasiga kelganda bola xayotida o'z o'rnini tushunib yetadi, kollektivda asosiy xulq-atvor normasini o'zlashtiradi. Aqli zaif bolalar xarakteri - bu xayotiy ta'sir va tarbiyalar ostida to'plangan va mustakkamlangan kishilar xulq-odati va aniq munosobati uslubidur.

Aqli zaif o'quvchilar shaxsini shakllantirib borishda xar bir psixik funktsiyaning tarkib topib borishi jarayenida L.S.Vygotskiy ko'rsatib o'tganidek, aqli zaif o'quvchilar shaxsini shakllantirib borishning o'z optimal bosqichi bo'ladi. Aqli zaif o'quvchilar shaxsini shakllantirishda turli psixik funktsiyalarning ayni bir vaqtda, ayni bir moramda tarkib topmasligi xarakterli.

Aqli zaif bolalar bosh miyasi chuqur zararlanganligi sababli barcha asab faoliyatlari buziladi. Bu buzilishlar bosh miyaning qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarida xam o'z aksini topadi. Xatto ikki signal sistemalarining o'zaro aloqalarida buzilishlar ko'zga tashlanadi. Defektolog va psixologlar L.S.Vygotskiy, Suxareva, Vlasova va.b. ta'kidlanishicha aqli koloklikda ruxiy nuqson murakkab tuzilishga ega ekan.

1.2. Anomal rivojlangan shaxslar korreksion-tarbiyaviy ishlari tamoyillari

Maxsus maktablarni komplektlash xalq ta'limi tizimining eng muhim bo'g'inlaridan biridir. Ma'lum bir turdagi maxsus maktablarda tarbiyalash va o'qitilishi lozim bo'lgan bolalarni malakali saralashdan o'tkazish qabul-saralash komissiyalarining vazifasidir.

«Yordamchi bolalar muassalariga bolalarni saralash» haqidagi dastlabki rasmiy xujjat 26 oktyabr 1996 yilda chiqarilgan bo'lib, unda yordamchi maktabga bolalarni saralashni tashkil etish printsiplari bayon etilgan. Ushbu maktablarda o'qitiladigan bolalar kategoriyalari aniqlangan. Ushbu xujjatda bolalarda aqli zaiflikni erta aniqlash masalasiga aloxida e'tibor beriladi. Bolalarni xar tomonlama va chuqur o'rganish talab etiladi. Keyinchalik defektologlarning sayi xarakatlari, tekshirish metodlari va saralashning shunday tamoyillarini yaratishga, qaratildi ularda xar bir bolaning rivojlanishiga mos sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash muhimdir. 1973 yili rus defektologlari G.M.Dulnev, A.R.Luriyalar taxririda «Принципы отбора детей во вспомогательные школы» kitobi, bir kator karorlar, xususan «Об отборе детей во вспомогательные школы» metodik tavisyalari nashr qilindi.

Bu qo'llanmalarda saralashning tamoyillari, maqsadi va vazifalarining mazmuni yoritilgan. Bolalarni xar tomonlama tekshirish metodikasi berilgan, yordamchi maktabga qabul qilinadigan va qabul qilinmaydigan bolalar kategoriyalari ko'rsatilgan.

G.M.Dulnev va boshkalarining qo'llanmasida bolalarni maxsus muassalarga to'g'ri saralashda asoslaniladigan tamoyillar ko'rsatilgan.

Bolalar muassasalarining xodimlari o'z faoliyatida insonparvarlik prinsiplarini maksimal darajada rivojlantira oladigan sharoitni o'z vaqtida yaratib berishdan iboratdir. Bu tamoyil bolani diqqat bilan va chuqur

o'rganish, uning yo'lida uchraydigan kiyinchiliklarni yengib o'tish uchun vositalarni izlashni takozo qiladi. Umumta'lim muassalari sharoitida bolalarga berilgan barcha zarur yordam choralari xam ijobiy natija bermagandangina ularni maxsus muassalarga yuborish masalasi ko'yiladi.

Bolalarni o'rganishda zarur komplekslilik tamoyilidir. Bu tamoyil bolani birgalikda muxokama qilishda barcha mutaxassislarning (vrach, defektolog, psixolog) tekshirishida olingan ma'lumotlarni e'tiborga olishni nazarda tutadi. Bu tamoyilga bolani komissiyagacha bo'lgan vaqtda o'rganishda ularning xolatini aniqrok bilish, rivojlanishidagi nuqsonlarining sabablarini aniqlashga imkon beradi. Pedagog birinchi bo'lib boladagi parishonlik, tolikish, yig'loklik kabi o'zgarishlarga diqqatini qaratish mumkin. O'z navbatida vrach ushbu o'zgarishlarning sabablarini aniqlashga yordam beradi va ularni bartaraf etish uchun zarur vositalarni tavsiya etadi.

Bola xar tomonlama va to'liq o'rganish prinsiplari xam katta ahamiyatga ega. Bu tamoyillar bolaning bilish faoliyati, xissiy-idoraviy doirasi va xulqini tekshirishni nazarda tutadi. Shuningdek, bolalarning aqliy qobiliyatlarning shakllanishiga ta'sir etadigan jismoniy rivojlanishi xam e'tiborga olinadi. To'liq o'rganish deganda bolaning psixik rivojlanishi aloxida olingan qobiliyatlarni rivojlanishining oddiy summasi emasligini, shuning uchun bola haqida uning idroki, xotirasi yoki psixik funktsiyalarning xolatini tekshirish asosidagina xulosa chiqarib bo'lmasligini esda tutish lozimligini tushunamiz.

To'liq o'rganish deganda bola haqida olingan barcha ma'lumotlarni, aloxida psixik jarayonlarning xususiyatlari, xissiyot, iroda, xulq va xolat haqidagi ma'lumotlarni albatta solishtirish nazarda tutiladi.

Bolani xar tomonlama, to'liq o'rganish agarda u bolaning faoliyati jarayonida: o'qish, mexnat yoki o'yin faoliyatlarida amalga oshirilsa

muvaffakiyatli bo'lishi mumkin. Bolani o'rganish, tekshirishda foydalaniladigan metodlar xam, materiallar xam ularning yosh va xarakterologik xususiyatlarini e'tiborga olgan xolda maksimal darajada individuallashtirilishi lozim. Komissiya a'zolari bola bilan kontakt o'rnatishlari lozim. Bu bolaning shaxsi sifatlarini: qiziqishlarini, irodaviy xarakatlarining xolati, xarakatlaridagi maqsadga yunalganlik, asosiy psixik jarayonlarning o'tishi xususiyatlarini yaxshirok anglashga yordam beradi.

Defektologiya uchun eng o'ziga xos prinsip bolalarni **dinamik** o'rganish prinsipidir. Bu prinsip shuni anglatadiki, bolani o'rganishda tekshirish vaqtida u biladigan va bajara oladiganlarni emas, balki ularning ta'limdagi imkoniyatlarini xam e'tiborga olish lozimdir.

Bu tamoyil asosida L.S.Vigotskiyning bolalarning «yakin rivojlanish zonasini, o'qitishda ularning potensial imkoniyatlarini o'rganish haqidagi fikrlari yotadi. Bolaning aqliy rivojlanishi kanchalik yukori bo'lsa bola u yoki bu topshirigni bajarishni, egallangan tajribani yangi vaziyatda ko'llay olishni shunchalik muvaffakkiiyatli, tez o'rganib oladi. Aqli zaif bolalarning normal rivojlanayotgan bolalardan farklanadigan tomonlaridan biri shuki, Aqli zaif bolalar yordamdan yaxshi foydalana olmaydilar. Shuning uchun tekshirishda pedagog diqqatini bolaga tushuntirishdan so'ng uning ishi kanchalik yaxshilanganligiga, uning o'xshash vazifani qanday bajarishga qaratishi lozim.

Bola tomonidan bajarilgan topshiriqni baxolashda sifat-sonli yondoshish tamoyilini xam e'tiborga olish lozim. Faqatgina oxirgi natijanigina emas, balki topshirig'ini bajarish usulini xam e'tiborga olish lozim.

Aqli zaif bolalar uchun muassasalarning komplektlashda amal qilinadigan prinsiplar shulardir.

Yordamchi maktablarga bolalarni tibbiy-pedagogik komissiyasining namunali nizomi va aqliy va jismoniy nuqsonga ega bolalarni yordamchi maktablarga qabul qilish qo'llanmasi asosida amalga oshiriladi.

Tibbiy-pedagogik komissiya (TPK) yil davomida ishlaydi, ayniksa 3-4 choraklarda jadal ish olib boradi.

Komissiya bir kunda 10 tadan ko'p bo'lmagan bolalarni tekshirishi lozim.

Talab etiladigan xujjatlar:

1. Vrach-psixonevrolog tomonidan beriladigan ma'lumotno-mayullanma.
2. Tibbiy xujjatlarda vrach-psixonevrologning xulosasi bo'lishi lozim (diagnozning tulik, batafsil yoritilishi, bolaning nevropsixik xolati, analizlarining tulik ma'lumoti).
3. Bolaning somatik xolati haqidagi xulosali ambo`lator karta ma'lumotlari, oftalmolog, otolaringolog, logopedning tekshirish natijalari.
4. Bolaga berilgan psixologo-pedagogik tavsif.
5. O'zlashtirish tabeli.
6. Faoliyati natijalari (daftarlari, chizgan rasmlari, yasamalari).

Psixologik-pedagogik tavsifnoma.

1. Bola haqidagi umumta'lim maktabida o'kigan vaqti ko'rsatilgan pasport ma'lumotlari.
2. Oilasi haqida ma'lumotlar (oila a'zolarinig soni, ota-onasining ma'lumoti, oila a'zolarining munosabatlari, bolaga bo'lgan munosabat).
3. Bilim darajasi va o'quv malakalari haqida ma'lumot.

4. O'qishga, aloxida fanlarga, jamoaga, mehnatga bo'lgan munosabati haqidagi ma'lumotlar.

5. Bolaning bilish jarayonlari haqidagi ma'lumotlar.

6. Xissiy-irodaviy doirasining xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar.

7. Bolaning shaxsiy xususiyatlari haqidagi ma'lumotlar.

8. O'tgan yil davomida bolaning bilish faoliyati va shaxsining rivojlanish dinamikasi haqida ma'lumot.

Psixologo-pedagogik tavsifnoma quyidagi uchta talablarga javob berishi lozim:

1. Shaxsni to'liq aks ettirishi.

2. Bola shaxsining rivojlanish dinamikasini aks ettirish.

3. Psixologo-pedagogik tavsiyalar.

Psixologo-pedagogik tavsiyanoma ota-onalarga tavsiyalar bilan yakunlanadi.

Xisobga olish daftari.

Xisobga olish jurnalida quyidagi ma'lumotlar aks etishi lozim:

1. Familiya, ismi, otasining ismi.

2. Tug'ilgan vaqti.

3. Yashash joyi.

4. Ota-onasi haqida kiska ma'lumot.

5. Bola komissiyaga kim tomonidan, kaysi sinfdan yuborilgan va necha yil o'kigan.

6. Komissiyaga qanday diagnoz bilan kelgan.

7. TPK diagnozi va xulosasi.

8. Imzo¹ (eslatma).

TPK tekshirishda barcha ma'lumotlar kotiba tomonidan bayonnomaga yozib beriladi.

Bayonnomoma.

I. Rasmiy ma'lumotlar (famiyasi, ismi, tug'ilgan yili, oyi, yashash joyi, bolani kim yuborgani, ota-onasining yoshi va kasbi).

II. Analitik ma'lumotlar va vrachning xulosasi bo'lgan tibbiy tekshirish ma'lumotlari.

III. Psixologo-pedagogik va logopedik tekshirish ma'lumotlari.

- 1) Bola kontaktga oson kirishadimi?
- 2) Bolaning o'zi, ota-onalari, karindoshlari haqidagi ma'lumotlar.
- 3) Atrof haqidagi tasavvurlari doirasi.
- 4) Rasmlar va matnlarni idrok etish xususiyatlari.
- 5) Katta-kichiklik, shakl, rangni idrok etish xususiyatlari.
- 6) Vaqtni idrok etish.
- 7) Fazoni idrok etish.
- 8) Diqqatining xususiyatlari.
- 9) Xotirasining xususiyatlari.
- 10) Tafakkurining xususiyatlari.
- 11) Nutqining xususiyatlari.
- 12) Xisoblash, yozuv va o'quv malakalarining xususiyatlari.
- 13) Maqsadga yunaltirilgan faoliyati.
- 14) Xissiy-idoraviy doirasi va xulqining xususiyatlari.

IV. Diagnostika.

V. TPK ning xulosasi.

Shaxsiy varakasi bayonnomalar bilan tegishli bo'limlarga yuboriladi.

TPK ga malakali, faqatgina aqli zaif bolalarning rivojlanish xususiyatlarini va yordamchi maktabda o'qitish va tarbiyalashning barcha tomonlarinigina emas, balki normal rivojlanayotgan bolalarning psixik va jismoniy xususiyatlari bilan yaxshi tanish bo'lgan mutaxassislar kiritiladi.

Komissiyaning a'zolari xalq ta'limi bo'limi tomonidan tasdiklanadi. Komissiyaning a'zolariga quyidagilar kiradi:

1. Vrach-psixonevrolog.
2. Pedagog-defektolog.
3. Psixolog.
4. Logoped.

Komissiya raisi bo'lib xalq ta'limi bo'limining vaqili (respublika komissiyasida-xalq ta'limi vazirligining vaqili), komissiya raisining muovini qilib-sog'likni saklash bo'limining vaqili (respublika komissiyasida-sog'likni saklash vazirligining vaqili) tayinlanadi. TPK ning tuzilishi doimiy bulishi zarur, bu aqli zaif bolalr uchun maxsus muassalarni tug'ri komplektlashni amalga oshirishning zaruriy shartlaridan biridir.

TPK yil davomida ishlasa xam, uning asosiy ishi 3-4 choraklarning oxirida utkaziladi.

Bolani TPK dan utkazish.

1. Vrach-psixonevrolog komissiya a'zolarini shaxsiy varag'idagi xujjatlar bilan tanishtiradi.
2. Pedagogik xujjatlar bilan tanishish.

3. Ota-onalar bilan suxbat.

4. Vrach-psixonevrolog tomonidan bolani ko'rikdan o'tkazish.

5. Pedagog-defektolog tomonidan bolaning psixik rivojlanishining xususiyatlarini o'rganish, boladagi bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash:

a) bola bilan aloqaga kirishish.

b) bolani o'zi, ota-onasi, karindoshlari haqidagi ma'lumotlarni to'plash.

v) tevarak-atrof haqidagi bilim va tasavvurlarni aniqlash.

g) idrok va anglash xususiyatlarini aniqlash.

d) rasm mazmunini mustaqil tushunish ko'nikmasini aniqlash; matnni tushunish; asosiysini ajratish va xulosa chiqarish; o'xshash ligi va farkanishini aniqlash buyicha predmetlarni takkoshlash ko'nikmasi, predmetlarni klassifikasiyalash va umumlashtirish ko'nikmasi; predmet va xodisalar o'rtasidagi munosabatlar, vaqt, fazoviy, sabab-okibat bog'lanishlarini aniqlash ko'nikmasi.

ye) xotira, diqqat, nutqning xususiyatlari.

j) bilimga qiziqish.

z) xissiy-idoraviy sifatlari.

i) xulqning xususiyatlari.

k) bilim, ko'nikma, malakalarning sifati, darajasi.

l) o'qishga xalakit beradigan kiyinchiliklarning sabablari.

TPK ishiga tibbiy, psixologo-pedagogik va logopedik tekshirishlar kiradi.

Tibbiy o'rganish o'ziga oftalmologik, otolaringologik, somatik, nevrologik va psixiatrik tekshirishlarini kiritadi. Komissiyada bolani avval tibbiy tekshirishdan o'tkazish maqsadga muvofik.

I. Tibbiy tekshirish.

a) Oftalmologik tekshiruv. Bunday tekshirish vrach- oftalmolog tomonidan komissiyaga takdim qilingan xujjatlar ko'rib chikilganidan so'ng o'tkaziladi.

b) Otolariningologik tekshiruv. Komissiyaga takdim qilingan xujjatlarni otolariningolog kurib chikkanidan sung utkaziladi.

v) Somatik, nevrologik va psixiatrik tekshirish. Bunday tekshiruv vrach-pediatr tomonidan komissiyaga takdim qilingan xujjatlar ko'rib chikilganidan so'ng o'tkaziladi.

II. Psixologik tekshirish. Bunday tekshirish psixolog yoki pedagog-defektolog tomonidan komissiyaga takdim qilingan xujjatlarni va tibbiy tekshirish ma'lumotlari ko'rib chikilganidan so'ng o'tkaziladi.

III. Pedagogik tekshirish. Komissiyaga topshirilgan psixologik va tibbiy tekshirish ma'lumotlari bo'lgan xujjatlarni pedagog-defektolog tomonidan ko'rib chikilgandan so'ng o'tkaziladi.

IV. Logopedik tekshirish. Logoped tomonidan komissiyaga takdim etilgan xujjatlarni va komissiyadagi tekshirish ma'lumotlari kurib chikilgandan sung utkaziladi. Bola xar tomonlama tekshirilgandan so'ng komissiya tekshirish bayonnomasini beradi. Unda kiska analitik ma'lumotlar, klinik, pedagogik va logopedik tekshirish ma'lumotlari, bolaning aqliy rivojlanishi xarakteri va darajasi haqidagi umumiy xulosa, boshka nerv-psixik buzilishlar haqidagi ma'lumotlar keltiriladi. Bolaga tavsiya etilgan maktab turi, shuningdek zarur davolash ishlari ko'rsatiladi. Bayonnoma yuboriladigan bolalar bog'chasi, maktabga va xokazolarga tavsiya etiladi.

1.3. Nuqsonli bolalar nutqining psixologik xususiyatlari

Nutq kishilarning til vositasi orqali aloqa qilish jarayenining tarixidan tarkib topgan shaqlidir. Nutq rang-barang ifodali tovushlarning majmuasidan iborat. Bu tovushlar oliy nerv sistemasining signallari vositasida, nutq organlarining turlicha shakllanishi yoki xarakati natijasida paydo bo'ladi. Shu bois tovushlarni vujudga keltiruvchi manbalarni, organlar fizeologiyasini, ularning faoliyatini o'rganish, talaffuzda nuqsonlarning kelib chikish sabablarini aniqlash xamda to'g'ri va ravon talaffuzni ta'minlovchi omillaridan biri bo'lib xisoblanadi. Nutq apparati bir-biriga bog'liq bo'lgan ikki kismdan: markaziy va periferik nutq apparatidan iborat. Markaziy nutq apparatiga: bosh miya, periferik nutq apparatiga: nafas bo'limii, ovoz bo'limi, artikulyasiya bo'lmilari kiradi. Nutq buzilishlari quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- 1) So'zlovchining yoshiga nomuvofiklik xususiyatlari;
- 2) Shevachilik, nutqiy savodsizlik, til bilmaslikning ifodasi bo'lmagan xususiyatlari;
- 3) Bolaning keyingi psixik rivajlanishiga tez-tez salbiy ta'sir utkazadigan xususiyatlar.

Bolalarda nutq buzilishini yuzaga keltiruvchi sabablar ichida tashki (ekzogen) va ichki (endogen) omillar, shunigdek atirof-muxitning tashki sharoitlari fark qilinadi.

Nutqiy nuqsonning turli sabablarini kurib chikishda evolyusion-dinamik yondoshiladi.

Bu nuqsonning yuzaga kelish jarayenini taxlal qilishdan, anomal rivajlanishining umumiy qonuniyatlarining xisobga olishdan iboratdur.(I.M.Sechenev,L.V.Выготskiy.)

Shuningdek, bolaning tevarak-atrofdagi sharoitni aloxida o'rganish talab qilinadi. Psixik jarayenlarning shakllanishda biologik va sosiol jarayenlarning

birligi prinsipi nutqiy sistemaning rivojlanishiga nutqiy muxit, muomala, emosional aloqa va boshka faktorlarning ta'sirini aniqlash imkonini beradi. Eshitishi normal bo'lgan bolaning kar-sakov ota-ona ko'lida tarbiyalanuvchi, surunkali kasal bo'lib tez-tez kasalxonalarda davolanuvchi bolalarda nutqning rivojlanmay kolishi, oilada uzok vaqt davom etuvchi ruxiy shikastlanish va ikki tillik bolada duduklanishning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi nutqiy muxitning nutq rivajlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishiga misol bo'ladi. Bolaning nutqi kattalar nutqi asosida rivojlanib boradi.

Xama nutq buzilishlari kelib chikishiga ko'ra ikki guruxga bo'linadi:

- 1) Organiq xarakterdagi nutq buzilishlari,
- 2) Funksional xarakterdagi nutq buzilishlari.

Organiq nutq buzilishlari o'z navbatida ma'lum joyning zararlanishiga ko'ra markaziy va perepirik xarakter bo'ladi. Funksional buzilishlar-bunda nutq jarayenida ishtirok etadigan a'zolar tuzilishida xech qanday o'zgarishlar bo'lmaydi.

Nutqning to'g'ri shakllanishi atrofdagilar nutqiga, nutqiy tajribaga, to'g'ri nutq muxiti va ta'lim-tarbiyaga bog'liq. Nutq tug'ma qobiliyat emas, balki xayot davomida bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishi bilan paralel ravishda shakllanib boradi. Nutq buzilishlarini o'rganish, tushunish uchun bola nutqining normal rivojlanish yulini, bu jarayenning o'ziga xos xususiyatlarini, nutqning muvaffakiyatli shakllanishida katta rol o'ynovchi sharoitni bilish lozim. Bundan tashkari bola nutqining rivojlanish davrlarini aniq bilish zarur. Bu esa nutqning rivojlanishi jarayonidagi u yoki bu kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash uchun kerak bo'ladi.

Mualliflar bola nutqining shakllanish davrlarini turlicha ko'rsatadilar, ularni xar xil nomlaydilar va xar birining yosh chegaralarini turlicha ifodalaydilar. G.L. Rozengrad-Pupko bolada nutq rivajlanishini ikki davrga ajratadi:

1) Tayyorlov davri (2yoshgacha)

2) Nutqning mustaqil shakllanish davri.

A.N.Leontov bola nutqining shakllanishini 4-davrga bo'lib ko'rsatadi:

1) Tayergalik davri-bir yoshgacha;

2) Bogchagacha bo'lgan davr -3yoshgacha;

3) Maktabgacha bo'lgan davr-7yoshgacha;

4) Maktab davri;

Xozirgi vaqtda turli tipdagi muassasalarning tuzilishi va tuzatish-tarviyaviy ta'sir etish mazmuni aniq belgilangan. Bolani uning umumiy va nutqiy rivojlanishi saviyasiga mos keladigan muassasaga o'tkazish zarurati tug'ilganda bu imkoniyatni ta'minlovchi vorislik ko'zda tutiladi. Yil sayin maktabgacha tarbiya yoshidagi anomal bolalarga ko'rsatilayotgan yordam kengayib bormokda. Xalq ta'limi tomonidan «Jismoniy va aqliy rivojlanishda kamchiligi bor bolalar uchun maktabgacha tarbiya muassasalari nomenklaturasi haqida»gi karori qabul qilingandan so'ng maxsus maktabgacha tarbiya muassasalari tarmog'i sezilarli darajada rivoj topdi. Maktab reformasiga muvofik nutqiy nuqsonga ega bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan maktab va maktabgacha ta'lim sistemasini takomillashtirish davom ettirilmokda. Nutq nuqsoniga ega bulgan katta yoshdagi kishilar, o'smirlar va bolalarga poliklinikalarda, shifaxonalarda, dispanser, sanatoriylarda kompleks tibbiy logopedik yordam ko'rsatiladi. Rivojlanishda kamchiligi bor bolalarga davlatimizning ko'rsatayotgan g'amxurligi faqat maxsus muassasalarning differensiallashgan tarmog'ini tashkil etishda namoyon bo'lmay, balki rivajlanishida nuqsoni bor bolalarga beriladigan ta'lim darajasini sistematik ravishda oshirib borishda aks etayotir. Ko'pchilik maxsus maktablar internat shaqlda bo'lib, ularda bolalarni ta'lim-tarbiya olishi davlat xisobidan ta'minlanadi. Bizning mamlakatimizda axoliga ko'rsatiladigan differensiyalashgan logopedik yordam keng rivajlangandir.

Bu yordam xalq ta'limi va sog'likni saklash soxalari orqali amalga oshirilmokda.

Nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarga mo'ljallangan maktabgacha tarbiya muassasalari tarmogi rivojlana boshladi. Dastlab bu ommoviy bog'chalar qoshida tashkil qilingan aloxida eksperimental guruxlar edi, keyinchalik esa nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarga muljallangan aloxida bolalar bog'chalari va yasli-bog'chalari tashkil topdi. Normal nutqni o'zlashtirgan, ta'limni muvaffakiyatli tamomlangan va 7 yoshga to'lmagan bolalar umumiy tipdagi bogchaga o'tkazilardilar.

Maxsus maktabcha tarbiya muassasalari shoriyatida turli xil nutq nuqsonlariga ega bulgan bolalarga beriladigan logopedik ta'limning asosiy vazifalari yetakchi nutq nuqsonini tuzatish bilan birga xat-savodni egallashga tayerlash ishini xam o'z ichiga oladi. Nutq nuqsoniga ega bolalarga muljallangan maktabgacha tarbiya muassalarida barcha tuzatish jarayenlarini aniq tashkish qilish ko'zda tutiladi.

Tuzatish ishlari kuydagilar, ya'ni:

- bolalarni o'z vaqtida tekshirish;
- mashg'ulotlar jadvalini okilona tuzish;
- xar bir bola bilan olib boriladigan individual ishni rejalishtirish;
- frontal mashgulotlarni keraqli jixozlar va kurgazmali kurollar bilan ta'minlash;
- logopedikning tarbiyachi va ota-onalar bilan o'zaro xamkorlik qilishi orqali ta'minlanadi.

Nutqida kamchiligi bor shaxslarning barcha yosh guruxlarida nutq, bilish faoliyati, emosional –irodaviy soxalaridagi nuqsonlarni bartaraf etish imkoniyatlari tibbiy va pedagogik ta'sirlar kompleksining o'z vaqtida va aynan bir xil qo'llanishiga bog'liqdir.

Bolalar bogchasi(bolalar uyi)aqliy zayf bolalarga mo'ljallangan maktabgacha tarbiya muassasasining asosiy shaqli bo'lib xisoblanadi.Guruxlar yoshni xisobga olib, kuydagicha komplektlashtiriladi:kichik gurux 3-4 yoshdan 4-5 yoshgacha ,urta gurux 4 -5 yoshdan 5-6 yoshgacha,kata gurux 5-6,tayerlov guruxi 5-7 yosh. Guruxdagi bolalar soni intellektning buzilishi darajasidan kat'i nazar 10-12 boladan iborat bo'ladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi aqliy zaif bolalarning ko'pchiligida yakkol namoyon bo'lgan nutq kamchiliklari mavjud bo'lib,ular uchun korreksion ta'limning umumiy sistemasida sistematik logopedik ish ko'zda tutiladi.Logopedik ish mashg'ulotlar jadvaliga kat'iy rioya kilgan xolda xar bir yosh guruxida xaftasiga 2 marta frontal nutq o'stirish mashgulotlarida amalga oshiriladi.

Og'ir nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalarga mo'ljallangan maktab normal eshitish va saklangan intellektda vujudga kelgan alaliya,afaziya, duduklanish kabi nutq kamchiliklariga ega bo'lgan bolalarga mo'ljallangan maxsus maktab muassasasidir. Bu maktab 2-bo'limga bolalarni qabul qiladi.

1) nutqi umumiy rivajlanmagan bolalar uchun ta'lim olish muddati 12 yil(tayerlov sinfi 1-12 sinf.)

2) duduklanishning ogir formasi bilan xastalangan bolalar uchun 9-yil(1-9 sinflar 12-kishidan iborat bo'ladi. Maxsus maktabni bitiruvchilar uchun to'liqsiz o'rta ma'lumot haqidagi guvoxnoma beriladi.

Maxsus maktabning 2-bulimida bolalar tulik bulmagan urta maktab xajmida bilim oladilar.Duduklanishning ogir formasiga ega bolalarni o'qitishda ommoviy maktab darsliklar, maxsus logopedik jixozlar, ta'limning texnik vositalaridan foydalaniladi.

Bola nutqining rivajlonish jarayeni uz vaqtida tugri kechishi uchun maxsus sharoitlar zarurdur. Buning uchun:

- Bola ruxiy va jismoniy jixatdan sog' bo'lishi,
- Normal aqliy qobiliyatga ega bo'lishi,
- Normal eshitish va ko'rishi,
- Yetarli darajada ruxiy aktivlikka ega bo'lishi,
- Gaplashish extiyejiga ega bo'lishi,
- To'g'ri nutq muxitiga ega bo'lishi lozim.

Bolada nutqning normal rivajlanishiga unga doimo yangi tushunchalarni o'zlashtirib olishga, tevarak-atirof haqidagi bilim va tasavvurini kengaytirishga imkoniyat yaratadi. Shunday qilib, nutq uning rivojlonishiga taffakurning rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir.

BIRINCHI BOBGA DOIR XULOSALAR

Birinchi bobga oid materiallarni chuqur o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan aqli zaiflikni keltirib chiqaradigan sabab-okibatxususiyatlari endogen va ekzogen xususiyatlarga ega. Aqli zaiflikning mohiyatini nuqsonning moddiy asosi bog'liq bo'lib, bosh miyaning organik buzilishini kursatadi. Boshqacha aytganda aqli zaiflikning moddiy sifatida kasallangan bosh miya e'tirof etiladi. Bu kasallik sabab-okibati natijasida bolaning bilish faoliyatlari keng ma'noda buzilib, aqliy rivojlanish tezligi, samaradarligi pasayadi. Bosh miya kasalliklari sababini kelib chikishiga kura endogen vv ekzogen sabablarga bulishimiz mumkin.

Ikkinchidan, aqli zaiflikni keltirib chiqaruvchi sabablar turli ilmiy, uslubiy, psixo-pedagogik va tibbiy adabiyetlarda turlicha bayen etiladi. Buni kuydagicha ifadalashimiz mumkin.

1. Xomila davrida turli salbiy ta'sir etuvchi infeksiya, intoksikasiya (infeksiyaning kuchayishi, organizm xolsizlanishi)

2. Tugilish vaqtidagi jaroxat asfiksiya.

3. Chakolokning ilk yoshi gi salbiy ta'sir etuvchi yukumli intoksikasiya, ovqatlanishning buzilishi, tashki ta'sir (ekologiya).

4. Turli irsiy yul bilan avloddan-avlodga utadigan gen, xromosoma kasalliklari.

Uchinchidan, aqli zaif bolalar bosh miyasi chuqur zararlanganligi sababli barcha olii asab faoliyatlari buzilgan bo'ladi. Patologik buzilishlar bosh miyaning kuzgolish va tormozlanish jarayenlarida xam o'z aksini topadi. (O'zlarinig mustaqil ishlari). Aqli zaif bola faoliyatlarida tashabbuskarlik, mustaqillika intilish kabi shaxsiy xislatlar bulmaydi. Uzlarining mustaqil ishlarini aqliy jixatdan tushuntirib Bera olmaydilar. Ommoviy maktab ukuvchilari orasida oligofren bolalar uchrab turadi, ularning aqliy jixatdan usmaganligi ona kornida bulgan davrida muayyan miya sistemalarining yoki xayotining ilk davrida tashki zararli ta'sirlar sabab bulgan.

To'rtinchidan, onaning xomiladarlik paytida yukumli kasalliklarga yulikish, ogir virusli gripp, tif, qizilcha va ona organizmidagi turli parazitlarning xomilaga yukishi toksiplazmoz, xomilaning shikastlanishi, ota-onaning spirt ichimliklar iste'mol qilishi alkogolizm shu faktorlar jumlasiga kiradi. Tug'ilish vaqtida bolaning qisqish bilan sug'irib olinishi, vakum bilan tugilgan vaqti chuzilip ketsa yoki tez tugilish bulganda oligofreniyaga sabab bulishi mumkin. Oligofreniya ba'zan bola tugilgandan sung bir yoshga yakin bulishi okibatida xam vujudga kelishi mumkin. Bunday kasalliklar jumlasiga miya va uning pustligini shamallashi, (menengit) va markaziy nerv sistemasining ishkastlanishi kiradi. Oligofreniya nasil orqali xam utadi. Shuningdek, ona bilan bolaning kon tarkibidagi bir-biriga tugri kelmasligi rezus faktorlar xam sabab bo'ladi. Ruxiy kasalliklardan aqli zayflarni F. Platter ajiratti. Xozirgi vaqtda yerdamchi maktablarda asosan aqli zaiflikning yengil darajasi debil bolalar ta'lim oladilar. Beshinchidan, aqliy nuqsonning chuqurligiga qarab oligofreniyani 3-darajaga ajiratadi:

1) Debil-birmuncha yengil darajada bo`lub, oligofreniyaning eng ko`p tarqalgan darajasi. Yordamchi maktablarla asosiy shu bolalar saralanadi.

2) Imbisillik- debil darajada bir muncha daraja.

3) Idiot –Oligofreniyaning eng ogir darajasi bo`lib, ular idroklarda kupol, rivojlanmaganlik yakkol kurinib turadi. Imbesill bolalarning fikrlash jarayenlari juda past darajada bo`ladi. Aqli zaiflik deganda-meriy ruxiy rivajlanishdan chetlashib, haqiqiy, real aqliy nuqsonlikka olib keluvchi xolat tushuniladi.

Oltinchidan, ta`lim jarayonida aqli zaif bolaning taffakuri, nutqi, qiziqishlari va bilish qobiliyatlarining rivajlanishi bilan bog`liq xolda u axloqiy xam rivojlanib boradi. Yordamchi maktablarda o`qishni tugatish arafasiga kelganda bola xayotida o`z o`rnini tushunib yetadi, kollektivda asosiy xulq-atvor normasini o`zlashtiradi. Aqli zayif bolalar xarakteri bu xayotiy ta`sir va tarbiya ta`sirida to`plangan va mustakkamlangan xulq-odati va aniq munasobati uslubidir.

Yettinchidan, aqli zayif bolalar bosh miyasi chuqur zararlanganligi sababli barcha asab faoliyatlari buziladi. Bu buzilishlar bosh miyaning kozgalish va tormozlanish jarayenlarida xam uz aksini topadi. Xatto ikki signal sistemalarining uzaro aloqalarida buzilishlar ko`zga tashlanadi.

II–BOB. ANOMAL SHAXSLAR BILAN OLIB BORILADIGAN REABILITASIYA VA IJTIMOIIY ISHLAR XUSUSIYATLARI

2.1. Anomal shaxslar kategoriyalariga tavsifnoma

Yordamchi maktablarni komplektlash masalasi xozirgi zamon pedagogikasining muhim vazifalaridan biridir. Yordamchi maktabda o'qishga nomzodlar orasidan haqiqiy Aqli zaif va yordamchi maktabda o'qishga muxtoj bulganlarni ajratish, aniqlash muhim va jiddiy vazifadir. Uning muhimligi shundaki, bu vazifani yechilishda bolaning takdiri xal etiladi.

Aqli zaiflikning moxiyatini tushunish xam ilmiy, xam amaliy jixatdan muhim bo`lib, ushbu xolatni tugri diagnostikalashga yordam beradi va yordamchi maktablarni komplektlashdagi xatolarni oldini oladi. "Aqli zaiflik" oddiygina qobiliyatlarni pasayishi, aklning kamligi emas, bu – shaxsning barcha tomonlarining sifatini uzgarishidir. Bolada aqli zaiflikda asosan intellekt buziladi, shu bilan birga xissiy, irodaviy doirasida, xulqida sezilarli nuqsonlar, buzilishlar kuzatiladi. Pedagogikaning asosiy masalasi aqli zaiflikni u bilan ba'zi umumiy uxshash tamonlari bo'lgan, ammo undan keskin fark qiladigan xolatlardan ajratishdir. Aqli zaiflik bilan chalkashtirilib yuboriladigan xolatlarning barchasida biz aqli zaiflik xarakterlanadigan uziga xos tomonlarni xammasini topa olmaymiz. Sinchiklab taxlil qilinganda albatta intellektning buzilish chuqurligini yukligini yoki ushbu nuqsonning turgun emasligini, yoki markaziy nerv sistemasining organi q jaroxatlanmaganligi aniqlanadi.

Shunday belgilarning mavjudligi yoki mavjud emasligi aqli zaiflikni diagnostika qilishda mezon bo'lib xizmat qilishi lozim. Yordamchi maktablarni komplektlashda aqli zaiflikni unga o'xshash xolatlardan ajratish bilan baxolangan xuddi shu masalalar eng ko'p kiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Maktab yoshidagi bolaning intellekti normadaligini shubxaga olishning sababi bo'lib uning ta'lim jarayonida o'zlashtirmasligi xizmat qiladi.

O'zlashtirmaslikni aqli zaiflik bilan o'xshatmok, chalkashtirish ko'pol nazariy va amaliy xatodir.

O'zlashtirmaslikning eng ko'p tarqalgan sababi bolaning maktab ta'limiga tayyor emasligi, bolada o'quv faoliyati zaminlari va malakalarining shakllanmaganligidir. Bolalar talablarga buysunishga o'rganmaganlar, ishni oxiriga yetkazishni, topshiriqlarni bajarishda diqqat qilishni bilmaydilar, ishda maqsadga yunala olmaydilar. O'zlashtirmasliklarning sabablariga shuningdek, maktabdagi o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etilishdagi turli kamchiliklar (didaktik tamoyillarning buzilishi, darsning metodik jixatdan mukammal emasligi, o'qituvchining pedagogik malakasini pastligi, bolaning individual xususiyatlarini e'tiborga olmaslik va xokozolar), bolaning oiladagi yashash sharoitining yaxshi emasligi (ota-onalar tomonidan bolaning o'qishini nazorat qilinmasligi, yordam berilmasligi, kun tartibiga rioya kilmaslik, oiladagi mo'joroli vaziyat) xam kiradi.

Umumta'lim maktablaridagi barcha o'zlashtirmovchi o'quvchilarni 2 guruxga ajratish mumkin:

a) umumta'lim maktablarida qoldiriladigan yoki uzok bo'lmagan muddatga sog'lomlashtirish muassasalariga yuborilib yana maktabga qaytariladigan o'zlashtirmovchi bolalar;

b) nuqson xarakteriga kura tegishli maxsus maktablarga yuboriladigan o'zlashtirmovchi bolalar.

a) Umumta'lim maktablarida qoldiriladigan o'zlashtirmovchi bolalar.

Avvalo bor, bu guruxga pedagogik nazoratdan qolgan bolalar kiritiladi. Pedagogik nazardan qolgan bolaning maktabgacha tarbiya davridayok oiladagi tarbiyaning yomon sharoitlaridan kelib chiqishi yoki maktabda tajribasiz o'qituvchining qoloq bolaning e'tiborsiz koldirishidan, yoki bolaning maktabga muntazam ravishda qatnamasligi okibatida kelib chikishi mumkin. Odatda bunday o'quvchilar tegishli pedagogik yordamdan so'ng o'zlashtiruvchi o'quvchilar safiga ko'shilishlari mumkin. Aksincha, bunday bolalarga o'z vaqtida yordam ko'rsatilmasa, ular borgan sari o'z tengdoshlaridan orqada kolib boradilar, ta'limdagi muvaffakiyatsizliklar bolalarda o'qishga nisbatan salbiy munosabatni keltirib chiqaradi, ular sistematik ravishda maktabdagi xulq koidalarni buzib

boradilar. Natijada umumta'lim maktabi bunday o'quvchini maxsus maktabga o'tkazishga xarakat qiladi. Bu notug'ri karor bo'lib masalani bu usulda xal qilish mutlako mumkin emas.

Umumta'lim maktablarida Aqli zaif bo'lmasalarda o'qishda kiynaladigan o'zlashtirmovchi bolalar uchraydi.

Birga rivojlanish vaqtinchalik orqada kolgan, ya'ni infantil bolalar kiradi.

Infantil bolalar psixik rivojlanish buyicha uz tengdoshlaridan sezilarli orqada koladilar. Ularning qiziqishlari o'yin faoliyati bilan chegaralanadi. O'yin jarayonida ular uziga xizmat qilish malakalarini egallab olsalar xam undan kam foydalanadilar. Mustaqil o'yinlari mazmunli, qiziqarli bo'lib uzok davom etishi mumkin. Infantil bolalarning lug'at boyligi yetarlicha bo'lib, ular xikoyaning, ertakning mazmunini tushunib oladilar. Qiynalganda yordamdan yaxshi foydalana oladilar.

Infantil bolalar uchun ayniksa xulqning murakkab formalarining rivojlanmay kolishi xarakterlidir. Bunday bolalarda barcha faoliyat turlarining funksional faolligining pasayganligi kuzatiladi.

Infantil bolalar odatda buyi past, gavda tuzilishi tug'ri bo'ladi. Ularning ko'pchilligida jinsiy sistemaning rivojlanmay qolganligi kuzatilib, jinsiy yetilishning orqada qolishi va ikqilamchi jinsiy tomonning rivojlanmay qolishiga olib keladi.

Maktabda o'kiyotgan bunday bolalar katta kiyinchiliklarga uchraydilar, tez charchab koladilar, zarur vaqtda faol ishlay olmaydilar, chalg'iydilar.

Maxsus davolash, bolaning imkoniyatlarini e'tiborga olgan xolda o'qitish, uyda kulay sharoitni yaratish bunday bolalarni sezilarli darajada rivojlanishni ta'minlaydi.

O'zlashtirmaslik bolaning astenik xolatiga xam bog'liq bo'lishi mumkin. Bolada astenik xolat uzok vaqt davom etgan kasallikdan so'ng tez charchash, xotiraning, diqqatning zaiflashuvi, xulqning buzilishlarida namoyon bo'ladi.

Astenik bolalarda tez ruxiy xoldan toyish, quvvatsizlik, faol diqqatning turg'unmasligi, ish kuni davomida faoliyatning maxsuldorligini bir xilda bo'lmasligi, ish qobiliyatining pasayishi, xotiraning pastligi (ular sodda masala va misollarning shartini esda saklab kolmaydilar) kuzatiladi. Yozuvda xarflarni tashlab ketish, so'zlarni oxirigacha yozmaslik, juda sekin yozish kabi xatolar kuzatiladi. Tolikish xolatida xatolar soni ko'payadi, bushanglik, xorg'inlik kuzatiladi, mashg'ulotlarga qiziqish yukoladi.

Astenik bolalarda ko'pincha kizarib ketish, okarib ketish, solivasiyaning kuchayishi, ko'p terlash (ayniksa kaftlarning) kabi vegetativ reaksiyalar, uyku va ishtaxaning buzilishi, bosh og'rigi va boshka o'zgarishlar kuzatiladi.

Kulay, avaylash sharoitidagi ta'limda va keraqli bulgan davolosh ishlari olib borilganda bola asta-sekin chinikib boradi va jismoniy rivojlanadi. Miyaning funksional faolligini oshirishga yordam beradigan sharoit yaratiladi, kisman kompensasiya yuz beradi. Bunda bola keyinchalik umumta'lim maktabida o'qish mumkin.

Analizatorlarning buzilishida xam aqli zaiflikka o'xshash xolat bo'lishi mumkin. Analizatorlarning buzilishdan kelib chikkan nuqsonlar bolaning bilish faoliyatiga salbiy ta'sir etadi va maktabda uni o'zlashtirmovchi o'quvchilar safiga ko'shilishiga sabab bo'ladi.

Ma'lumki, bilish jarayoni – bu atrof borlikdagi xakikatning inson ongida aks etishidir. Uning normal kechishi uchun soglom miya va rivojlangan sezgi organlarning mavjudligi talab etiladi. Analizatorlardagi ozgina uzgarishlar, nuqsonlar xam agarda markaziy nerv sistemaning kompensator imkoniyatlaridan va maxsus texnik vositalardan (eshitish apparatlari, kuzoynaklar) foydalanilmasa atrof dunyoni notugri aks etishi, tasavvurlarning notug'riligi, kambag'alligiga olib keladi.

Maxsus mashg'ulotlar o'tilmaganlar zaif ko'ruvchi va zaif eshituvchi bolalar oddiy xolatlarda ojiz, nochor bo'lib koladilar, aqli zaif bolalarga o'xshaydilar. Ammo zaif eshituvchi bolaga yaxshi eshitishni talab kilmaydigan mantikiy

xarakterdagi topshirik berilganda (klassifikasiya, rasmlarni sabab-okibat boglanishlarni e'tiborga olish, taxlash) u topshirikni tez va to'g'ri bajargan (R.M.Boskis, T.A.Vlasova).

Analizatorlardagi buzilishlar natijasida kelib chikkan xolatni aqli zaiflikdan ajratishda orqada kolishda nima yetakchi va birlamchiligini aniqlash lozim: aqli zaiflik birlamchi va yetakchi bo'lib eshitishning, ko'rishning pasayishi esa birgalikda keldimi yoki rivojlanishning orqada kolish analizatorning buzilishi natijasida yuzaga keldimi? Shunga bog'liq ravishda bola ta'lim olish lozim bo'lgan maktab turi haqidagi masala xal qilinadi.

Aqli zaiflikdan nutqida nuqsoni bo'lgan normal bolalarni (ayniksa nutqi to'liq rivojlanmagan) ajratish zarurdir. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda intellektning saklanganligi nutq ishtirok etmaydigan topshiriklarni bajarishda (kismlardan predmetni, 3-4 kismdan iborat kirkilgan rasmlarni yig'ish: predmetda yetishmaydigan kismning rasmni chizib ko'yish, predmetlarni klassifikasiya qilish; predmetlarni, rasmlarni ketma-ketlikda taxlash) aniq ko'rinadi. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar xulqi adekvat, reaksiyasi tez, nuqsonlarni bartaraf etishga xarakat qilishlari yakkol namoyon bo'ladi. Eng avvalo mana shular bilan nutqida nuqsoni bulgan bolalar aqli zaif bolalar ajralib turadilar.

Yukorida ko'rsatib o'tilgan bilish faoliyatidagi vaqtinchalik kiyinchiliklar (markaziy nerv sistemasining vaqtinchalik buzilishi natijasida, aloxida analizatorlarning buzilishi, nutq nuqsonlari natijasida) agarda ularga maktab va oilaning diqqati o'z vaqtida qaratilmasa pedagogik jixatdan karovsizlikka olib keladi, uni esa ko'pincha aqli zaiflik bilan chalkashtiriladi.

Shunday qilib aqli zaiflikni aniqlash murakkab vazifa. Aqli zaiflikni aniqlashning murakkabligi shundaki, unda boshka nuqsonlardan farkli (qo'rkovlik, ko'rlik) aniqlashning absolyut obe'ktiv mezon, yoki o'lchov shkalalari mavjud emas. Shuning uchun aqli zaif bolaning shaxsini xarakterlaydigan barcha xususiyatlarni juda yaxshi bilish, sof aqli zaiflikni unga o'xshash xolatlardan farklab olish kunikmasi lozim.

2.2. Anomal rivojlangan shaxslar bilan reabilitasiya va ijtimoiy shaxsiyatlarini tamoyillari

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, tibbiy-pedagogik komissiyada differensial-dagnostik jixatdan murakkab bolalarni bir marta kiska vaqt ichida tekshirish yetarlicha bulmaydi. Bunday bolalar chuqur va uzok vaqt o'rganishni talab qiladi. Ba'zi xollarda bolalarni komissiyaga kadam o'rganish, boshka xollarda esa komissiyadan keyin xam o'rganish zarur bo'ladi. Xar bir aloxida xolatda komissiya xalq ta'limi organlari bilan birgalikda bolani maxalliy sharoitni e'tiborga olib ko'shimcha o'rganish masalasini xal qiladilar. Eng muhimi-bolaning xolatini to'g'ri aniqlashdir.

Tibbiy-pedagogik komissiya ishini to'ldiruvchi yullarni kuyidagi jadvalda keltiramiz.

2.2.1 - jadval

BOLALAR BOGCHASIDA TEKSHIRISH, O'RGANISH		DIAGNOSTIK GURUXLARDA 6-12 KUN DAVOMIDA TEKSHIRISH
Oilaviy maktab-larda o'rganish, tekshirish	TPK	TPK ishi davrida 5-6 kun davomida yordamchi maktabning sinflarida o'rganish Yordamchi maktablardagi diagnostik sinflarda 1 yil davomida bolalarni o'rganish (Aqli zaiflikning yengil formalarini normadan ajratish). Yordamchi maktabning diagnostik sinflarida 1 yil davomida bolalarni o'rganish (debillarni imbesillardan o'rganish).

Tibbiy-pedagogik maslaxatlar

Ma'lumki, bolalar bogchasidayok ba'zi bolalar rivojlanishidagi o'ziga xos xususiyatlar bilan diqqatni o'ziga tortadilar. Ba'zi xollarda tarbiyachilarning tashvishlari o'rinsiz bo'lsa, boshka xollarda defektologning

yordami zarur bo'ladi. Defektolog xulqning buzilish sabablarini ochib berishga va bunday bolalar bilan korreksion-tarbiyaviy ishlarni tugri tashkil qilishga yordam beradi. Bolani o'rganish uning faoliyatini, ayniksa o'yin faoliyatini kuzatish jarayonida olib boriladi. Bunda bolaning o'yinni mustaqil tashkil eta olish, o'yin rejasini tuza olishi, o'yinning ijodiy xarakterdaligi, o'yinga bulgan turg'un qiziqishlarga e'tibor berish zarur. Bolaning jamoali o'yinlarda o'zini qanday tutishi, o'yin koidalarini tushunishi va ularga rioya qilishi, xissiy-idoraviy jarayonlarining turg'unligi, motorikasining xususiyatlari taxlil qilinadi. Bolaning o'yin faoliyatini kuzatish bilan birgalikda, rasm, matnlarning mazmunini tushunishni, predmetlarni takkoslash, umumlashtira olish ko'nikmalari, katta-kichiklik, shakl, rang, mikdor va xokazolarni o'zlashtirishini tekshirish metodlardan foydalaniladi. Tekshirish materiali rangli, bolaning diqqatini jalb etadigan bo'lishi lozim. Topshiriklar xajmi buyicha katta bulmasligi kerak, chunki maktabgacha yoshdagi bolalar uzok vaqt diqqatini bir narsaga jamlay olmaydilar. Kursatmalar aniq, tushunarli bo'lishi lozim. Bolaning rivojlanishi orqada kolgan xollarda uni maktabga joylashtirishga shoshilmay zarur bulgan tibbiy-pedagogik yordamni bolalar bog'chasi sharoitida ko'rsatish lozim.

Agarda tekshirish jarayonida bolada aqli zaiflik aniqlangan bo'lsa, uni albatta tegishli muassasaga joylashtirish lozim.

Ommaviy maktablardagi o'zlashtirmovchi o'quvchilarni maqsadga yunaltirilgan xolda o'rganish aloxida axamiyatga ega. Odatda o'quv yilining birinchi choragidayok ba'zi bolalarda o'zlashtirmaslik aniqlanadi.

Defektolog ommaviy maktabga kelib o'qituvchiga bolalardagi o'zlashtirmovchilik xarakteri va sabablarini aniqlashga, bola bilan ish olib borish yullarini belgilab olishga xar bir aloxida xolatda o'qituvchiga samarali yullarini ko'rsatishga yordam beradi. O'qituvchi bolani kuzatadi (defektolog tavsiya kilgan dastur buyicha). Bu bolalarni o'rganish to'rtinchi chorakning boshida o'tkaziladi. O'qituvchi bilan o'tkazilgan suxbat va bolaning muvaffakkiyatliklarini taxlil qilish asosida uning ushbu maktabda keyinchalik xam ta'lim olish masalasi xal etiladi.

Bolalarni o'rganish rayon psixonevrologi bilan xam jixatlikda o'tkaziladi. Bunday o'rganishda ko'pchilik bolalar tibbiy-pedagogik komissiyaga erta yuborish bilan bog'liq bulgan ruxiy tashvishlardan xoli bo'ladilar. Agarda tibbiy-pedagogik komissiyaga yuborish zaruriyati paydo bulsa, defektolog maslaxati buyicha o'qituvchi yil davomida to'plagan kuzatish materiallari bolani komissiyada tekshirishni yengillashtiradi.

Agarda bolaning nuqsoni juda murakkab bo'lib komissiya a'zolari diagnoz ko'yishda shubxalansalar bolani kuzatish davom ettiriladi. Komissiyadan keyin yana ko'shimcha o'rganishga muxtoj bulgan bolalar soni, ularning yoshi va xolatidan kelib chikib «diagnostik» (saralash) guruxlarini tashkil etish mumkin (8-10 ta bola). Diagnostik guruxlar yordamchi maktab, yordamchi maktab-internat qoshida tashkil etiladi. Guruxning ish vaqti 6-12 kun. Guruxda mashgulotlar o'tish uchun boshlangich sinfda bolalarni o'qitish metodikasini egallagan pedagog-defektolog tayinlanadi.

Logoped va vraya-psixonevrolog vaqti-vaqti bilan bolalarni kuzatib, tekshirish o'tkazadilar. Barcha kuzatishlar sinchiklab kayd etib boriladi, guruxda ish yakunlanganida umumlashtiriladi va tibbiy-pedagogik komissiyaga masalani xal etish beriladi.

Bolalar kontingentidan kelib chikib guruxda kundalik jadval tuziladi. Xar kuni 4 ta dars o'tiladi, xaftaning birinchi va oxirgi kuni 3 soatdan dars o'tilib, 15-20 minutlik tanaffuslar beriladi. Tanaffuslar bolaning dam olib, o'ynab, ovqatlanib olishlariga ulgurish uchun uzaytirib berilgan. Bolalarning xulqi tanaffus vaqtida xam o'rganiladi va kayd etib boriladi. Bolalar psixik faoliyatining turli tomonlari haqida ma'lumotlar to'plash muhimdir. Bolalarning bilish faoliyatining xususiyatlarini, uning xissiy-idoraviy sifatlarini to'larok bilash, aniqlash uchun ularning bo'sh vaqtida xulqlarini kuzatishdan tashkari xarakteri buyicha odatdagi bilim beruvchi darslardan tashkari maxsus fanlar xam o'tilidi. Bunday darslar komissiyada boshlangan ishlarning davomi bo'lib darsning xar bir bosqichida ma'lum bir diagnostik vazifalar ko'yiladi. Bunda bolaning tekshirish vaqtigacha

erishgan natijalarigina emas, balki uning potensial imkoniyatlari, ta'lim jarayonida yordamdan foydalana olish ko'nikmalari, bolaning rivojlanish dinamikasi aniqlanadi. Darsda bolalar bilan yakka mashg'ulotlarga asosiy vaqt ajratiladi. O'qituvchi har bir bolaning imkoniyatlarini turli tarqatma psixologo-pedagogik materiallardan foydalanib aniqlashga xarakat qiladi. Har bir dars uziga xos maxsus yunaltirilgan bulishidan kat'iy nazar (xisob malakalarini, ukuv malakalarini aniqlash), u faqat «yozuv» yoki «o'qish» darsigina bo'lib kolmaydi. Har bir bu turdagi darsda bolalar psixikasining turli tomonlari tekshiriladi, o'rganiladi. Mashg'ulotlar mavzusi va ish turlari tekshirilayotganlar haqida aynan nimani bilish talab qilinayotganligiga bog'liq.

Tekshirilayotgan bolalar haqida ko'p ma'lumotlarni dars-o'yinlardan olish mumkin. Xarakatli o'yinlarni o'tkazishda bolalarga o'yinni o'zlari tanlashlarini taqlif qilib biz ularga tanish uyinlar zaxirasini aniqlab olamiz. Bolaning o'yin koidalarini tushunish va koidalarga rioya qilib o'ynash ko'nikmasi uning aqliy faoliyatini xarakterlaydi. O'yin davomida mustaqillik va tashabbuskorlik, o'rtoklariga munosabat, xakkoniylik va xokazolar namoyon bo'ladi. Harakat doirasining xususiyatlari haqida xam materiallar to'planadi (koordinasiya, merganlik, chaqqonlik va xokazo).

Bolalarning diafilmlarni tomosha qilishlarida, ekskursiya, sayrlar vaqtida faqatgina ularning dunyoqarashi bilangina emas, balki sezgi, idrok kabi psixik jarayonlarning sifati haqida xam bilib olish imkoniyati tugiladi.

Barcha mashg'ulotlarda bolalarning diqqat xususiyatlari, diqqatning tarkokligi sabablari aniqlanadi. Bunga ko'rish, eshitishning pasayishini, mashg'ulotlarda qiziqishning yo'qligi, toliqish kabilarning ta'siri ko'rib chiqiladi.

Har bir mashg'ulotda bolalarning nutqiga e'tibor beriladi: talaffuzning xususiyatlari, grammatik ko'rilish, lug'at boyligi, xissiy tomonlari aniqlanadi.

Bolalarda ko'tarinki kayfiyat, ishchanlik kayfiyatini xosil qilish, shuningdek ularning motorikasining xususiyatlari haqida ko'shimcha ma'lumotlar olish uchun mashg'ulotlar boshlanishda guruxda har kuni bolalar jismoniy

mashklarni bajaradilar. Bundan tashkari, dars vaqtida (mashg'ulot va bolalarning xolatidan kelib chikib, 1-2 marta) jismoniy dakikalar o'tkaziladi.

Diagnostic guruxlarda ishni bunday tarzda tashkil etish bolalarning xolatini aniqlabgina kolmasdan, xar bir bola bilan o'tkaziladigan keyingi mashg'ulot uchun tavsiya berishga imkon yaratadi.

Agarda komissiyadan so'ng kushimcha tekshirishga 1-3 ta bola muxtoj bo'lsa, ular uchun gurux tashkil etish zarur emas. Bunda bolalarni o'rganish uchun yordamchi maktablarning sinflariga joylashtirish maqsadga muvofikdir. Bu sinfda bolaning bo'lish vaqti u haqida xulosa chiqarish uchun chegaralangan bo'ladi (5-6 kun). Bunday zaruriyat ayniksa bola avval xech kayerda o'kimaganligida, demak uni o'quv jarayonida kuzatish imkoni bo'lmaganda tug'iladi. Bunday yul bilan ommaviy maktablar tekshirishga 3-4 sinf o'quvchilarini yuborganlarida qo'llaniladi. Bunday bolalar o'kiydigan sinflarni komissiyaning ishini ularning o'quv dasturi bo'yicha bilimlarining xolatini aniqlash bilan murakkablashtirmasdan taxminiy joylashtirish mumkin. Bolani o'rganishni bunday tarzda tashkil qilinishida barcha ish odatdagi mashg'ulotlar jarayonida o'tkaziladi.

Tekshirilayotgan bolalar ularni maxsus kuzatilayotganini bilmasdan ushbu sinf o'quvchilariga berilayotgan topshiriqlarni bajaradilar, savollarga javob beradilar. Tekshirilayotgan va aqli zaif o'quvchilarni bergan javoblarini va xulqini takkoslab, aqli zaif bolalarning savollarga qanday munosabatda bo'lishni ko'rib o'qituvchi komissiyaning bolani yordamchi maktabga yuborish va kaysi sinfda o'qishi haqidagi dastlabki xulosasini tasdiklaydi yoki inkor etadi. Agarda bola o'zining aqliy rivojlanishi va maktab bilimlari bo'yicha ushbu sinfga mos kelsa u ta'lim olishni shu yerda davom ettiradi. Aksincha xolatda bola ommaviy maktabga kaytariladi. Bolani tekshirishga ketgan vaqt unga zarar keltirmaydi. Chunki tekshirish turtinchi chorakda o'tkazilib, bu vaqtda barcha maktablarda yangi o'quv materialini o'rganish yakunlangan bo'ladi.

Bolani o'rganishning bu yuli komissiya ishining davomi bo'lib, uni shaxar va viloyat yordamchi maktablarida ko'llash mumkin va xech qanday ko'shimcha mablag'lar talab etmaydi.

Bolaning xolatini o'quv-tarbiyaviy ish jarayonida uzok vaqt o'rganish lozim bulgan aloxida xollarda yordamchi maktablar koshida 1 yilga diagnostik sinflar tashkil qilish kabi usullardan foydalaniladi.

Bunday sinflar ikki turda bo'ladi:

- 1) Yengil darajadagi aqli zaiflik bolalarni psixik rivojlanish sustlashgan bolalardan ajratish uchun diagnostik sinflar;
- 2) Debil bolalarni imbesil bolalardan ajratish uchun diagnostik sinflar.

Diagnostik sinflardagi ishlarga metodik raxbarlik qilish tibbiy-pedagogik komissiyalar tomonidan amalga oshiriladi.

Bolalarni ta'lim jarayonida xar tomonlama tekshirish uchun sharoit yaratib berish, shuningdek lozim bo'lgan davolash tadbirlari xam ushbu sinflar maktab direktorlari va vrachlarga yuklatiladi.

Diagnostik sinflarda mashgulotlar 1 sentyabrdan boshlanadi va o'quv yilining davomida o'tkazilib boriladi. 1 turdagi diagnostik sinflarda o'quv mashgulotlarining kun tartibi yordamchi maktabning boshka sinflaridek bo'ladi.

Ikkinchi turdagi diagnostik sinflarda bir dars 35 minut davom etadi. Darslar orasidagi tanaffuslar 20 minut, ikkinchi soatdan sung-30 minut beriladi.

Xar kuni 4 soat dars o'tiladi (faqatgina birinchi xaftada kuniga 3 soat dars, 4 –chi soat sayr o'tkaziladi).

Diagnostik sinflarda bolalarni o'rganish «tabbiy eksperiment» sifatida o'tkaziladi. Mashgulotlar uchun bolaning maksimal imkoniyatini aniqlash materiali tanlanadi. Kuzatish bilan birgalikda bolalar eksperimental-pedagogik metodikalar yordamida tekshiriladi, o'rganiladi.

Bolalarni o'rganish buyicha to'plangan barcha materallar xar bir bola uchun tutilgan maxsus kuzatish kundaliklarida kayd etib boriladi. Kundaliklardagi ma'lumotlar vaqti-vaqti bilan umumlashtiriladi, taxlil qilinadi va keyingi ishlar uchun tavsiya sifatida olinadi. Bola haqida yig'ilgan ma'lumotlar asosida xarakteristika tuzilib tibbiy-pedagogik komissiyaga yakuniy xulosa va bola uchun tegishli muassasa turini aniqlash uchun topshiriladi.

Birinchi turdagi diagnostik sinflar mashg'ulotlari dasturiga psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar maktablari dasturiga psixik rivojlanishi sustlashgan bolalar maktablari dasturining 1-2 sinflar dasturidan materiallarni kiritish lozim.

Ikkinchi turdagi diagnostik sinflar ish dasturiga quyidagi mashg'ulotlar kiradi:

- bolalarni tevarak-atrof haqidagi tasavvurlarini aniqlash va rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar (nutq o'stirish darslari, ekskursiyalar, sayrlar va xokazolar);
- og'zaki va yozma nutqning xolatini aniqlaydigan mashg'ulotlar (nutq o'stirish, yozuv, o'qish darslari);
- oddiy matematik tasavvurlarni aniqlash va rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar (matematika darslari, ekskursiyalar, didaktik o'yinlar, rasm chizish, yasash);
- ko'l mexnati, amaliy faoliyatni aniqlash va rivojlantirish mashg'ulotlari (rasm, ko'rish-yasash, ko'l mexnati, o'z-o'ziga xizmat qilish).
- aqli zaif bolalar uchun muassalarni komplektlashda tibbiy-pedagogik maslaxatlar katta yordam beradilar.

Tibbiy-pedagogik komissiyalarga o'xshab tashkil qilingan maslaxatlar bolalarni kompleks tibbiy, psixologo-pedagogik va logopedik jixatdan o'rganishni ta'minlaydi. Maslaxatlar yil davomida faoliyat o'rsatadilar, shuning uchun bolalarni uzok vaqt davomida kuzatish, uning dinamikasini o'rganishga imkon beradi (kayta o'rganishni o'tkazish).

Tibbiy-pedagogik maslaxatlarining asosiy vazifasi muassasalarda tarbiyalanayotgan bolalarning ota-onalari va tarbiyachilariga yordam ko'rsatishdir.

Vrach-psixonevrolog va oligofreno-pedagog bolalar rivojlanishdagi nuqsonlarning sabablarini aniqlab, bolalarning kun tartibini tashkil qilish, ular bilan rivojlanishdagi, xulqidagi, diqqati, xotirasidagi nuqsonlarni bartaraf etish buyicha maslaxatlar beradilar.

Tibbiy-pedagogik maslaxatlarda 1,5-2 va undan katta yoshdagi bolalar tekshiriladi. Rivojlanishda u yoki bu nuqsonlar aniqlanganda bolalar maxsus muassasalarga jo'natish uchun tibbiy-pedagogik komissiyalarga yuboriladi.

Shunday qilib, tibbiy-pedagogik maslaxatlar aqli zaiflikni erta aniqlashga va bolani tegishli muassasaga o'z vaqtida joylashtirishga yordam beradi (aqli zaif bolalar uchun maxsus bolalar bog'chasi, yordamchi maktablar, mexribonlik uylari).

2.3. Anomal rivojlanish tadqiqotlarning o'ziga xos diagnostikasi

Bolalarni yordamchi maktabga saralash masalasini xal etishda logopedik tekshirish muhim o'rin egallaydi. Intellekti saklangan xolda birlamchi nutq nuqsoniga ega bulgan bolalarni yordamchi maktabga yubormaslik uchun nutq nuqsonlarining sabablari va xarakterini sinchiklab o'rganish juda zarurdir.

Artikulyasiya apparati

Tekshirishning maqsadi-artikulyasiya a'zolarining tuzilishi va xarakatchanligidagi nuqsonlarni aniqlashdir (jag, tishlar, tanglay, til, lablar). Tekshirish ogiz bo'shligini ko'zdan kechirish orqali amalga oshiriladi.

Tekshirish texnikasi. Nutq apparatining xarakat funksiyasining xolatini aniqlash uchun bolaga namuna yoki so'z ko'rsatmasi asosida til, lab, yumshok tanglayning asosiy xarakatlarini bajarish taqlif qilinadi. Xarakatlarni bir necha marta takrorlashdan so'ng baxolash lozim.

Natijalar taxlili. Artikulyasiya a'zolarining tekshirish jarayonida dislaliya, dizatriya, rinolaliyadagi nutqning tovush tomonidan buzilishlarini keltirib chiqaradigan turli xarakterdaga va murakkablikdagi nuqsonlar aniqlanishi mumkin.

Artikulyasiya apparatining tuzilishidagi anatomik nuqsonlar organik dislaliyadagi tovushlar talaffuzining turli buzilishlarini keltirib chiqaradi. Kattik va yumshok tanglayda yoriklarning bo'lishi (rinolaliya) ovozning mankalanishi va kup tovushlar talaffuzining buzilishiga olib keladi. Ba'zi xollardagina rinolaliyada faqatgina ovoz tembri buzilib, ammo tovushlar talaffuzi nisbatan normal xarakterda bo'lishi kuzatiladi.

Artikulyasiya apparatining funktsiyasining buzilishi dizartriya olib keladi (yengil, urta va juda ogir darajadagi).

Artikulyasiya apparatining nuqsonlari doimo xam og'ir nutq nuqsonlarining asosiy sababi bulmasligi mumkin.

Imbesil yoki debil darajadagi oligofren bolalarda artikulyasiya xarakatlariga taqlid qilish qobiliyatning pasayganligi, murakkab xarakat malakaning xosil bo'lishidagi kiyinchiliklar inertlik va motorikaning rivojlanmay kolishi bilan bog'liq.

Nutq.

Tekshirish ob'yekti impressiv (tushunish) va ekspressiv (faol) nutqdir.

Nutqning ikki tomoni xam bir vaqtning o'zida bir xil usullar va bir xil didaktik materiallar yordamida tekshiriladi. Ammo, nutqni tushunishni tekshirishda ogzaki javob talab etilmaydi.

Nutqni tushunishni buzilishi turli darajada bulishi mumkin. Tekshirish jarayonida fonematik eshitish xolati (nutqdagi tovushlarni idrok etish), aloxida suzlarning ma'nosini, jummalarni va suzlab berilgan yoki o'kib berilgan kichik xikoyaning mazmunini tushunish aniqlanadi.

Fonematik eshitish.

Fonematik eshitishni tekshirish nutqdagi tovushlarning differensiyasini aniqlashga qaratiladi.

Tekshirish texnikasi. Dastlab fiziologik eshitishning saklanganligiga amin bulish lozim. Sungra bolaga bir-biridan keskin fark qiladigan, shuningdek uxshash tovushlarni boshka tovushlar orasidan ajratish taqlif etiladi.

Masalan, unli tovushlar (a, o, u) ichidan «u»ni, «b,d» dan «d» tovushini ajratish. Bola ushbu tovushlarni eshitganida ko'lini ko'tarish lozim.

Bolalar jarangli va jarangsiz va xokazo tovushlarni eshitib ajratishda kiynalishlari mumkin.

Bolaga kuyidagi tovushlar juftini-p-b, b-p, s-sh, sh-s, r-l va boshkalarni, bug'inlarni (ushbu tovushlardan tuzilgan)-sa-sha, sa-ja, da-ta, pa-ba va xokazolarni takrorlash taqlif etiladi.

Bunda sirg'aluvchi, shovkinli, jarangli va jarangsiz undosh tovushlarni ajratishga diqqat qaratiladi.

Topshirikni murakkablashtirib, birdan 3-4 tovushlarni, masalan p-b-p yoki sodda bug'inlarni takrorlash (ba-pa, da-ta, va-fa) suraladi. Bu usul yordamida bolaning nutq tovushlarini ajrata olishi aniqlanadi. Bolaga akustik va artikulyasiya jixatidan bir-biriga yaqin bo'lgan tovushlardan tuzilgan suzlarni differensiasiya qilishni xam taqlif qilish mumkin. Masalan, sim-shim, kuz-tuz, bosh-tosh va xokazo. Tekshiruvchi bu so'zlarni aytadi va boladan shu so'zlarga mos rasmlarni topish so'raladi.

Tekshirish natijalarni taxlil qilish. Fonematik idroki rivojlanmagan bolalar o'xshash tovushlarni tug'ri takrorlay olmaydilar, to'g'ri yozmaydilar, tovushlarga mos xarflarni topa olmaydilar. Fonematik idrokning ko'pol buzilishlarida kator korrelyasiyalanuvchi fonemalarni ajrata olmaydilar, fonematik idrokning kisman rivojlanmaganligida esa boshkalarini yaxshi ajratgan xolda bir guruxdagi tovushlarni aniqlay olmaydi. Ammo ana shu katta bulmagan kiyinchiliklar xam so'z tarkibidan tovushlarni ajratish va farklashda xatolarga olib keladi va so'zning tovush taxlili va sintezining shakllanishiga tuskinlik qiladi.

Nutqni tushunish.

Nutqni tushunishni maxsus tekshirish suxbat vaqtida olingan dastlabki ma'lumotlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Tekshirish texnikasi. Eng oddiy usul bola oldidagi yoki rasmda tasvirlangan predmetlarni ko'rsatishni boladan so'rashdir.

Ma'lum bulgan usullardan yana biri-bola tomonidan bir necha so'z kursatmasini bajarilishidir.

I. Sodda kursatmalarni tushunish. Bolaga «Daftarni ol», «Qalamni ko'y» kabi oddiy ko'rsatmalarni bajarish taqlif qilinadi. Kursatmaga mos xarakat qilish uchun tushunganligidan dalolat beradi.

II. Murakkab ko'rsatmalarni tushunish. Bolaga berilgan ketma-ketlikda quyidagi turdagi murakkab ko'rsatmalarni bajarish taqlif qilinadi: «Eshikni yop va chirokni yoq», «Daftarni partaga qo'y va qalamni ol».

III. «Ustida», «ichida», «yonida», «orqasida», «tagida», kabi ko'makchi so'zlarni tushunish. Bolaga «Qalamni kitobni ustiga qo'y», «Qalamni kitobni tagiga qo'y» kabi ko'rsatmalarni bajarish taqlif qilinadi.

IV. Gaplardagi murakkab bog'lanishlarni tushunish. Buning uchun quyidagi usullardan foydalaniladi:

A) Kaysi jumla to'g'ri, aniqla: baxor yozdan avval keladimi yoki yoz baxordan oldin keladimi?

B) Tingla va savolga javob ber. Bolalar itning ketidan yuguryapti. Kim oldin yuguryapti?

V. Bog'langan matnni tushunish. Tushunishni tekshirish uchun bolaga kichik xikoyani eshitish va savollarga javob berish taqlif qilinadi.

Topshirikning bajarilishini taxlil qilish. Imbesil darajadagi aqli zaif bolalar taomilda ko'p uchraydigan predmetlarning rasmlarini ko'rsata oladilar. Bog'langan matnning mazmunini esa tushunish ular uchun murakkabdir.

Debil darajadagi aqli zaif bolalar (birlamchi nutq nuqsoniga ega bulmagan) xayotiy xolatlar bilan bog'langan sodda so'z ko'rsatmalarni xech qanday kiyinchiliklarsiz bajaradilar. Ketma-ketlikdagi bir necha sodda xarakatlarni talab qiladigan murakkab so'z ko'rsatmalarini tushunishda esa kiynaladilar. Fikrlashni talab etadigan ko'rsatmalarni bajarish ular uchun yanada kiyinrokdir. Bog'langan matn mazmunini qiyinchilik bilan tushunishlari mumkin. Ular matnning aloxida, ko'pincha axamiyatga ega bo'lmagan joylarini o'zlashtira oladilar.

Intellekti saklangan zaif eshituvchi bolalar tomonidan ularga qaratilgan nutqning tushunish leksik materialning va ko'rsatmaning grammatik jixatdan tuzilishi va ularga murojaat qilinayotgan savollarni bo'lishiga bog'liq. Eshitishda nuqsoni bulgan bolalar tomonidan matnni tushunishdagi kiyinchiliklar ko'p xollarda nutqning rivojlanmaganligi bilan (lug'at boyligining kamligi, aggramatizmlar) bog'liqdir. So'zlarni va iboralarni notug'ri tushunish ba'zan matnning mazmunini tushunmaslikka olib keladi.

Intellekti normada bolgan, ammo nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar tomonidan topshiriklarning bajarilishi nutqiy nuqsonning namoyon bulish darajasiga bog'liq. Gapirmaydigan yoki g'udirldaydigan bolalar ularga qaratilgan nutqni vaziyatga qarab tushunadilar. Xayotda ko'p qullaniladigan so'z ko'rsatmalarini ular tug'ri bajaradilar. Agarda topshirik sal boshka tarzda bo'lsa, masalan, "kitobni qalamni tagiga ko'y", noto'g'ri xarakatlarni kuzatish mumkin. Bunday bolalar uchun leksika katta rol uynaydi, grammatik shakllarning axamiyatini esa tushunmaydilar. Jumlati nutq darajasida tushunishdagi xatolar kamroq uchraydi.

Tovushlar talaffuzi.

Tovushlarning talaffuzi so'z, bug'in va so'ngra aloxida tovushlarni mustaqil yoki takrorlash yuli bilan tekshiriladi.

Tekshirish texnikasi. Maxsus tanlangan predmetli rasmlardan foydalaniladi.

Bola mustaqil ravishda rasmni nomlashi lozim. Agarda tekshirilayotgan tovush so'zda to'g'ri talaffuz etilsa, bolaga ushbu so'zni logoped ketidan takrorlash

taqlif etiladi, so'ngra bola tovushni aloxida talaffuz qilishi lozim (undosh tovushlar ochik va yopik bug'inlarni talaffuz qilish yo'li bilan tekshiriladi.)

Bolaning tekshirilayotgan tovushdan mustaqil nutqda qanday foydalanishni aniqlash uchun shu tovush ko'p ishtirok etgan so'zlardan tuzilgan bir-ikki gapni takrorlash taqlif qiliandi.

So'zlarda tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish ko'pincha so'zning bo'g'in tuzilishini buzilishi bilan (tovushlar va buginlarni almashtirish, tashlab ketish va ortikchasini ko'shish) birga keladi. Bunday xollarda bolaga mustaqil va takrorlab talaffuz etish uchun turli bugin tuzilishidagi suzlar beriladi.

Topshiriqlarning bajarilishini taxlil qilish. Tovushlar talaffuzidagi nuqsonlar buzib talaffuz etish, almashtirish, o'rin almashtirish tarzida namoyon bo'ladi. Shu bilan birgalikda turli nutq nuqsonlarini bir-biridan farklashga yordam beradigan belgilar xam mavjud.

Funksional va mexanik dislaliyada (rinolaliyadan tashkari) aloxida tovushlarning talaffuzini buzilishlari kuzatiladi.

Dizartriya nutq mankalanagan, noaniq xarakterga ega bo'ladi. Barcha tovushlar burun ottenkasiga ega bo'ladi. Ovoz monoton, zaif, ko'pincha bug'ik bo'ladi, nutqning sur'ati sekinlashgan.

Tovushlar talaffuzining buzilishlari bolalar rivojlanishidagi turli nuqsonlarda kuzatilishi mumkin.

Tovushlar talaffuzining namoyon bo'lish darajasi (dislaliya, dizartriya, motor alaliya) aqli zaif bolalarda intellektual yetishmovchilik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Kupchilik PRS bolalarda tovushlar talaffuzining buzilishlari kuzatilmaslgi mumkin, ammo nutqning tushunarililigi noaniq bo'lish xollari xam ko'p uchraydi.

Eshitishning pasayishida so'zlarning buzilishiga qaramay ko'p xollarda so'zlarning konturi saklanib koladi. Bunday bolalar uchun jarangli va jarangsiz tovushlarni almashtirish (jaranglilarni jarangsizlantirish) xarakterlidir.

Lug'at boyligini tekshirishda bolaning so'zni (tovush kompleksi sifatida) predmetning belgisi, xarakatiga moslash va nutqda undan tugri foydalanish kunikmasi aniqlanadi.

Tekshirish texnikisi. Rasmlar materiali to'plami taomilda ko'p uchraydigan, ammo juda keng tarqalmagan (bulut, tokcha, siyoxrang) predmetlar, xarakatlar, sifatlar tasviridan iborat bo'lishi lozim. Bundan tashkari bir butun predmetning va uning kismalarini tasvirlari (deraza, tokcha, fortochka)xam kerak. Rasmlar materiali mavzular (o'quv kurollari, o'yinchoklar, transport) yoki vaziyatli belgilar buyicha (magazin, ustaxona, sinf) tanlanadi.

Tekshirish vaqtida shunday usullardan foydalaniladiki, ular bolaning u yoki bu so'zdan nutqda foydalanishini, berilgan so'zdan yoki vokea band rasmdan gap tuzish, gapni tugata olishini aniqlashga yordam beradi.

Tekshirish natijalarini taxlil qilish. Imbesil darajadagi aqli zaif bolalar sodda, taomildagi so'zlarnigina tushunadilar va ishlatadilar, ularning ma'nosini tushuntirib bera olmaydilar.

Debil darajadagi aqli zaif bolalarning so'z zaxirasi kam bo'ladi. Ko'p so'zlarni noaniq shaklda ishlatadilar (masalan, tumshuk suzi o'rniga «burun» so'zi).

PRS bolalarning so'z zaxirasi kambag'al va kam differensirlashgan, passiv lug'at faol lug'atdan ustun bo'ladi.

Intellekti birlamchi saqlangan eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning so'z zaxirasi chegaralangan bo'lib, predmet va xarakatlar nomini almashtiradilar.

Motoralalik bolalarda lug'at boyligining kamligi boshka nutq nuqsonlari bilan birgalikda namoyon bo'ladi.

Grammatik ko'rilish.

Tilning grammatik ko'rilishining shakllanish holatini aniqlash-logopedik tekshirishning muhim o'rinliridandir.

Tekshirish texnikasi. Foydalaniladigan gaplarning turlarin aniqlash uchun maxsus tanlangan rasmlardan foydalaniladi. Bunday rasmlar asosida turli konstruksiyadagi gaplar tuzish mumkin.

Masalan, sodda gap (bola yig'layapti), sodda yoyik gap (kiz kug'irchokni cho'miltirayapti, otasi gazeta o'kiyapti).

Savollar yukoridagi gaplarning tuzilishini murakkablashtirish mumkin. (Kiz kitob ukiyapti), Qanday kiz? Kanaka kitob?

Murakkab gaplarni ikki yoki undan ortik xarakatlar tasvirlangan rasmlardan foydalanib tuzish mumkin.

Tekshirish vaqtida otlarning kelishiklarda turlay olish ko'nikmasini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Bolaning mustaqil nutqida ko'makchi suzlardan foydalanish ko'nikmasi, birlikdan ko'plik otlar yasay olishi tekshiriladi.

Tekshirish natijalarini taxlil qilish. Bunda bolaning foydalanadigan gaplar xarakteri, ularning tuzilish xususiyatlari, so'zlardagi sintaktik bog'lanishlarni ifodalay olish ko'nikmalari e'tiborga olinadi. Nutqning lug'at boyligi va fonematik tomonini tekshirish natijalarini xam e'tiborga olish muhimdir.

Imbesil darajadagi aqli zaif bolalar nutqi odatda bir necha so'zlardan (asosan, aloxida predmetlarning nomlaridan) iborat bo'ladi.

Debil darajadagi oligofren bolalar nutqining grammatik kurilishi ularning umumiy nutqiy rivojlanish darajasiga mos bo'ladi. Ular sodda, yig'ik gaplardan foydalanadilar.

PRS bolalarda xam nutqning kurilishini shakllanishi orqada koladi. PRS bolalar faol nutqda ravish, aniqlovchi, tuldiruvchilardan juda kam foydalanadilar.

Zaif eshituvchi bolalar nutqining grammatik kurilishi xam buzilgan bo'ladi. Bolalar foydalanadigan jumlarlar aggrammatik xarakterga ega. Gap tuzishda ular u yoki bu kismlarni tashlab ketadilar. Kelishik ko'shimchalarini, suffikslardan foydalanishda xarakterli xatolarga yul ko'yadilar.

Motoralalik bolalar o'z fikrlarini bayon qilishda sintaktik va morfologik darajadagi kiyinchiliklarga uchraydilar. Ular ishlatadigan gaplar odatda kiska, elementar, stereotip bo'ladi.

Yozish, o'qish.

Nutqning rivojlanmay kolishi savod o'rganish va to'g'ri o'qishni o'zlashtirishda kiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Yozish va o'qish malakalarini tekshirish metodikalarining bayoni va olingan natijalarinig taxlili bilan biz pedagogik tekshirishni o'tganimizda tanishganmiz.

Tibbiy-pedagogik komissiyada bolalarni logopedik tekshirish natijasida olingan ma'lumotlar bolani yuborish lozim bulgan muassasa turi haqidagi masalani xal qilishda ko'shimcha material bo'lib xizmat qiladi.

Nutq funksiyasining buzilishlari turli sabablarga bog'liq bo'lib, aloxida guruxdagi bolalarda turlicha namoyon bo'lishi mumkin.

O'zgaruvchan miqdorlarga ko'ra to'rt bosqichda tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tajribada o'zgaruvchan miqdorlarni oshirib borish usulidan foydalanildi.

1–bosqich o'zgaruvchan miqdorlarga ko'ra tashkil etildi. O'quvchilarda psixokorreksion faoliyat mazmuni va tamoyillari bo'yicha o'zgaruvchan miqdorlar doirasida o'tkaziladi. Bu bosqichda taqqoslash maqsadida 2 ta tajriba, 2 ta nazorat sinflari tanlab olinadi. Tajriba va nazorat sinflarida jami 101 nafar o'quvchi ishtirok etdi.

Tajriba–sinov o'rganilgan va endi o'rganilayotgan mavzularning farqini anglash, mavzuga mos dars holatini hosil qilish, o'rganilayotgan mavzuning nazariy va amaliy ahamiyatiga doir kirish suhbatlari tashkil etildi. Nazorat ishlari o'quvchilarda o'quvchilarda psixokorreksion faoliyat mazmuni va tamoyillari to'liq o'zlashtirishiga olib keladi, degan ilmiy faraz asosida o'tkaziladi.

Tajriba–sinov ishlarining 2–bosqichi 1–bosqichdan farqli ravishda o'zgaruvchan miqdorlar doirasida o'tkaziladi. Tajriba–sinov ishlarining 2–bosqichida yuqorida keltirilgan o'zgaruvchan miqdorlarga qo'shimcha tarzda quyidagi miqdorlar berildi:

- 1) rasm, chizma, jadvallar;
- 2) dars topshirig'ida berilgan vazifalar;
- 3) takrorlash usuli;

- 4) o'zlashtirish darajasidagi o'quvchilarni ogohlantirish;
- 5) bahs; 6) savolga javob topish;
- 7) qo'shimcha topshiriq tanlash;
- 8) takrorlash.

Tajriba–sinov ishining 3–bosqich tajriba–sinov ishlari 2–bosqichida amal qilingan barcha o'zgaruvchan miqdorlarga qo'shimcha tarzda o'zgaruvchan miqdorlarning ikki xususiyati hisobga olindi:

Yakuniy bosqich tajriba-sinov ishlari davrida o'quvchilar (101 nafar) o'rtasida suhbat, savol-javob va anketa so'rovlari tashkil etildi, ular tomonidan test topshiriqlari bajarildi. O'rganish natijasida quyidagi ko'rsatkichlar qo'lga kiritildi (2.3.1- jadvallar):

2.3.1-jadval

O'quvchilarda psixokorreksion faoliyat mazmuni va tamoyillari borasidagi bilimlari darajasi

Guruhlar	O'quvchilar soni (nafar)	Bilim, ko'nikma va malakalari darajasi		
		Yuqori	O'rta	Past
Tajriba-sinov guruhi	51	15	16	20
Nazorat guruhi	50	15	15	20

Tajriba-sinov ishlarining samaradorligini aniqlash maqsadida dastlabki va yakuniy tajriba natijalarini qiyosiy solishtirish natijasida quyidagi jadvallar hosil qilindi (2.3.2 - jadval):

2.3.2-jadval


O'quvchilarda psixokorreksion faoliyat mazmuni va tamoyillarini shakllantirish borasidagi bilimlarining dinamik o'sishi

Guruhlar	Bilim, ko'nikma va malakalari darajasi	
	Tajriba-sinov guruhleri	Nazorat guruhleri

Bosqichlar	n ₂ = 52 nafar			n ₁ = 50 nafar		
	Yuqori	O'rta	Past	Yuqori	O'rta	Past
Dastlabki tajriba	15	16	20	15	15	20
Yakuniy tajriba	37	10	5	24	18	8

2.3.1-diagramma

O'quvchilarda psixokorreksion faoliyat mazmuni va tamoyillarini shakllantirish borasidagi bilimlarining dinamik o'sishining diagramma ko'rinishi



Tajriba-sinov uchun tavsiya etilgan metodikaning samaradorligini dalillar bilan isbotlash maqsadida yakuniy bosqich natijalari tahlil qilindi. Yakuniy bosqich tajribasidan keyin tajriba-sinov guruhida sifat ko'rsatkichlarining o'sishi kuzatildi.

IKKINCHI BOBGA DOIR XULOSALAR

Psixologik korreksiya dasturlarini tuzishda quyidagi asosiy prinsiplarga tayanish zarur:

1. Korreksiya profilaktika va rivojlantiruvchi vazifalarning birligi prinsipi

2. Korreksiya va psixologik diagnostikaning birligi prinsipi
 3. Korreksiyaning faoliyatligi prinsipi
 4. Shaxsni yosh psixologik va individual xususiyatlarini inobatga olish prinsipi
 5. Psixologik ta'sir ko'rsatish metodlarining kompleksligi prinsipi
 6. Korreksiyaga mijozning ijtimoiy muxitidagi yaqin kishilarini jalb etish prinsipi
 7. Psixik jarayenlarni turli bosqichlariga tayanish prinsipi
 8. Ta'limni dasturlariga tayanish prinsipi
 9. Murakkablikni usishi prinsipi
 10. Berilayotgan materialni xajmi va murakkablik darajasini xisobga olish prinsipi
 11. Materialning emosional og'irliligi prinsipi.
1. Bu prinsip korrektsion ishlarda 3 ta tur yechimidan foydalanish kerakligini ta'kidlaydi, ya'ni 1) korrektsion, 2) profilaktik va 3) rivojlantiruvchi.

UMIMIY XULOSA VA TAQLIFLAR

Bitiruv malakaviy ishning mavzusiga doir manbalarni o'rganish natijasida quyidagi xulosalarga keldik.

Birinchidan, har bir bola rivojlanishi har xil bosqichida bo'ladi, ya'ni: juda yuqori pog'onada rivojlanish normada, past pog'ona – ya'ni rivojlanishda psixik qiyinchiliklar borligini anglatadi. Bunda notekis rivojlanish qonuniyati kelib chiqadi. Rivojlanishning orqada qolishi va shaxs rivojlanish qonuniyatining bo'zilishi hollari bola intellektining rivojlanishining sustligi yoki boshqa qiyinchiliklarini keltirib chiqaradi. Jumladan, bilish va o'rganish motivining rivojlanmasligi sababli bola nutqining rivojlanishi operasiyasining orqada qolishga olib keladi. Shuning uchun korreksion rivojlantiruvchi programmalarining masala va maqsadini aniqlaganda hozirgi kundagi aktual problemalar bilan chegaralanmay rivojlanishning yaqin prognozlaridan foydalanish ham kerak.

Ikkinchidan, bolaga o'tkaziladigan har qanday psixologik ta'sir faqatgina orqada qolgan bosqichni korreksiya qilishgagina qaratilgan bo'lmay orqada qolishini oldini olishga uygun rivojlanishga yo'l ochishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Uchinchidan, korreksion rivojlantiruvchi dastur 3 ta vazifani bajarishi lozim: Korreksion buzilish va orqada qolishni tuzatish.

Profilaktik – bo'zilish va orqada qolishning oldindan aniqlash.

Rivojlantiruvchi – rivojlanishda aniq maqsadlilik, optimizm, bo'shatib borishga qaratilganlik. Shu 3 ta dasturlarning birgalikda olib borishi kutilgan yaxshi natija berishi mumkin.

Uchinchidan, bu prinsip amaliy psixolog ishida mijozning rivojlanishi va psixologik yordam berishni bir butun deb talqin etadi. Mijozning psixologik va individual xususiyatlarini hisobga olish prinsipini mijozning psixik va shaxs rivojlanishining normativ taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki mijozning xususiyatlarini hisobga olish har bir mijozni konkret, individual xususiyatlari uni o'z yo'lini o'zi belgilashiga yo'l ochadi.

To'rtinchidan, metodlarning kompleksliligi prinsipi korreksion ta'sir etish programmalarining turli metodlari va texnikalaridan amaliyetchi psixolog

foydalanishi lozimligini yaqqol ko'rsatadi. Ko'pgina chet el psixologlari tomonidan tadbiq etilgan metodlar psixoanalizning nazariy negizini ochib beradi. Lekin hych qaysi metodika va texnika shaxsan bir nazariyaga bog'langan emas. Bu metodlar mijozning muammosini hal etishda yirik qurol bo'lib xizmat qiladi. Bu prinsipda mijozning psixik taraqqiyotida uning atrofida qilarning roli aniqlanadi. Bolaning yonidagi kattalar bilan aloqasi, birgalikdagi faoliyati, o'rganilgan hamda uning taraqqiyotiga baho beriladi. Bola tevarak atrofida qilardan ajratilgan holda emas ular bilan birgalikda rivojlanadi.

Beshinchidan, korreksion dasturlar tuzilganda ko'proq taraqqiy etgan psixik prosesslarga suyanish va ularni aktivlashtiruvchi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Insonning taraqqiyoti alohida prosess emas, shuning uchun bolalikdan shakllanishning har xil formalaridagi ko'rinishini o'rganishi kerak. Bu prinsipda oldin psixolog ko'rsatib beruvchi keyin mijoz tomonidan bajariluvchi dastur malaka ko'nikma hosil bo'lishida yaxshi samara beradi.

Oltinchidan, bu prinsipda oldin oddiydan so'ng qiyinroq bosqichga o'tish nazarda tutiladi. Bunda mijoz o'zi bajarayotgan ishdan zavq olishga va korreksion ishga qiziqishni orttirishga yordam beradi. Korreksion ishning vaqtida egallash yangisiga o'tishda qiyinchilik tug'dirmaydi. Bu prinsipda o'tkazilayotgan mashg'ulot, berilayotgan material mijozda ijobiy emosiyalarni uyg'otishi kerak. Psixologning korreksion dasturi psixologik ishlangan bo'lishi kerak. Korreksion ishlarning diagnostik tekshiruvi to'g'ri amalga oshirilishi kerak.

Yettinchidan, korreksion dasturlarning turlari. Korreksion ta'sir etishdan avval aniq korreksion ta'sir etish modelini to'zish lozim: umumiy, tipovoy, individual. Korreksiyaning umumiy modeli – bu har bir shaxs taraqqiyoti bir butun olingan shartlari tarmog'idir. U insonning tevarak-atrof uni o'rab turuvchi dunyo haqidagi farazlarni chuqurroq, haqqoniy, kengroq bo'lishiga, insonlar haqida ular orasidagi munosabat, jamiyatdagi o'zgarishlar, ularning faoliyatlari haqida analiz qila olishga, ko'zata olishga sharoit yaratadi. Korreksiyaning bu modelida mijozning sog'lig'i mashg'ulotning vaqti aniq belgilab olinadi. Korreksiyaning tipovoy modeli – bu model amaliy harakatlarning tayyorgarligi va o'tmishdan

iborat. Har xil komponentlardan foydalangan holda bosqichma-bosqich o'tkazilishidir. Korreksiyaning individual formasi – bunda mijozning o'ziga xos bo'lgan individual tomonlari hisobga olinadi – uning qiziqishlari, psixik taraqqiyoti, o'rgana olish qobiliyati, muammo va faoliyatidagi aniq ko'rinishi aniqlanadi.

TAQLIFLAR

Bitiruv malakaviy ishning xulosasida quyidagi taqliflar kiritilmoqda. Korreksiya va psixologik diagnostika birligining amaliyotdagi ijrosida psixologik

amaliyotning o'zgacha turi sifatida psixologik yordam ko'rsatish jarayonining yaxlitligi, mujassamlashganligini aks ettirishiga alohida e'tibor berish lozim..

Birinchidan, korreksion ishning amalga oshirishdan avval mujassamlashgan psixologik diagnostika izlanishlarini olib borish kerak, uning asosida birlamchi xulosa tuziladi va korreksion-rivojlantiruv ishning maqsad va vazifalari aniqlanadi. Samarali korreksion ish faqatgina avval o'tkazilgan batafsil psixologik o'rganish asosida tuzilishi mumkin. Shu bilan birga eng aniq, chuqur tashxis ma'lumotlari ham ma'nosiz bo'lib koladi, agar ular jiddiy o'ylangan psixologik-pedagogik korreksion tadbirlar tizimi bilan birlashmasa

Ikkinchidan, psixologning korreksion-rivojlantiruv faoliyatini amalga oshirish mijozning korreksion ishlar jarayonidagi kechinmalari va xis-tuyg'ulari, emosional holatining dinamikasi, faoliyati, fe'l-atvori, shaxs o'zgarishining dinamikasining doimiy nazoratini talab etadi. Ushbu nazorat programmaning vazifalariga keraqli o'zgarishlar kiritishni, mijozga psixologik ta'sir ko'rsatish uslublari va vositalarini vaqtida o'zgartirish imkonini beradi. Shunday qilib, korreksiya samaradorligini dinamikasining nazorati, o'z navbatida, korreksion ishlarning jarayonini singib o'tadigan psixologga keraqli ma'lumotlar va o'zviy bog'liqlikning ta'minlab beradigan tashxis muolajalarni amalga oshirishni talab etadi.

Uchinchidan, rivojlanishning meyorliligini ontogenetik rivojlanuvning yosh bosqichlarini, ularning biri birining o'rnini egallash jarayoni deb tushunish kerak. To'rtinchidan, yosh me'ori bolaning rivojlanishining darajasiga mos kelishini baxolashda va korreksiya maqsadlarini to'zishda quyidagi tavsiflarni xisobga olish zarur:

- 1) Rivojlanishning ijtimoiy vaziyati (axvolining) xususiyatlari (masalan, tarbiyaviy yoki maorifiy idoraning turini o'zgarishi, bolaning aloqa doirasi, kattalar, oila a'zolarini xisobga olganda va x.k.).
- 2) Aynan shu yosh rivojlanishi bosqichidagi psixologik yangi ko'nikmalarning tuzilish darajasi.
- 3) Bolaning asosiy faoliyatining rivojlanish darajasi, uning faollashtirish.

«Yosh meyor» tushunchasidan tashkari psixologni «individual meyor» degan tushuncha bilan ham to'knashishiga to'g'ri keladi, Ushbu tushuncha yosh rivojlanishi meyorida xar bitta aniq mijoz uchun uning individualligi va mustaqil rivojlanish yo'liga qarab rivojlanishini yaxshilash programmasini to'zish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. -T.: "Adolat", 2010.

II. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari

2. 2009 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2010 yilda iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlari to'g'risida. Xalq so'zi. №33. 2010 yil.

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari

3.Karimov I.A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: «O'zbekiston» 1997.

4.Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. –T.: «O'zbekiston» 2000.

5.Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. -T.: O'zbekiston , 2005.

6.Karimov I.A.Demokratik xuquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to'liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish-farovon hayotimiz garovidir". T.: O'zbekiston, 2007 .

7.Karimov I.A. "Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi". T.: O'zbekiston, 2010 .

8.Karimov I.A. "Asosiy vazifamiz Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir". T.: O'zbekiston, 2010 .

9.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T.; O'zbekiston, 2008 yil.

10.Karimov I.A Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi T, O'zbekiston, 2010.

IV. O'zbekiston Respublikasi vazirliklari me'yoriy-huquqiy hujjatlari

11.2010 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2011 yilda iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlari to'g'risida. Xalq so'zi. №33. 2011 yil.

V. Darsliklar.

O'zbekiston Respublikasida chop etilgan

12.G'oziyev E.o'. Oliy maktab psixologiyasi. «O'qituvchi» ,T.: 1997.

13.Nishonova Z.T. Oliy maktab psixologiyasi. T.: 2003.- 231s.

VI. O'quv qo'llanmalari

- 14.Abdurasulov R. Psixologning kundalik kitobi. Jizzax 2005 154b.
- 15.Adizova T.. Psixologik korrektsion ishlar. T.2000-126b
- 16.G'affarov A.Z., Yugay A.X. Pedagogika amaliyoti. T. 2002 -214s
- 17.Davletshin M.G., To'ychiyeva S.M. Umumiy psixologiya, T.. 2002.-231s.
- 18.Davletshin M.G. Zamonaviy maktab -o'qituvchisi psixologiyasi. –T, 1998.-321b.
- 19.Sherbakov A.I. Yosh psixologiyasi va pedagogika psixologiyadan praktikum. Toshkent, 1991.-213b.
- 20.Psixologiya. Qisqacha izohli lug'at .Toshkent, 1998.-178b.
- 21.G'oziyev E.G. Psixologiya. Toshkent, 1994-156b.
- 21.G'oziyev E.G. Yosh psixologiyasi. T.1994-145b.

VII. Rossiya federasiyasida chop qilingan o'quv qo'llanmalari

- 22.Vvedeniye v psixologiyu: Uchebnik dlya vyssh.shkoly/Pod obsh.red.A.V.Petrovskogo.-M., 1996. –493 s.
- 23.Vozrastnaya i pedagogicheskaya psixologiya: Ucheb.posobiye dlya institutov /Pod red. M.V.Gomezoz i dr.M., 1984. 256 s.
- 24.Galperin P.Ya. Psixologiya kak ob'yektivnaya nauka. Izbr. psixologicheskkiye trudy. M.: Voronej, 1998. 480 s.
- 25.Galperin P.Ya., Talызina N.F. Formirovaniye znaniy i umeniy na osnove teorii poetapnogo usvoyeniya umstvennykh deystviy. M.: 1968.-231s.
- 26.Gippenreyter Yu.B. Vvedeniye v obshuyu psixologiyu. M.: 1996. – 336 s.
- 27.Lyaudis V.Ya. Metodika prepodavaniya psixologii. M.: 1989.77 s
- 28.Lyaudis V.Ya.Formirovaniye uchebnoy deyatel'nosti studentov. M.: 1989.240 s.
- 29.Nemov R.S. Psixologiya: Uchebnik: V 3 kn. Kniga 1. Obshchiye osnovy psixologii. M.: 1998. –688 s.
- 30.Nemov R.S. Psixologiya. Kniga 2. Psixologiya obrazovaniya. M.: 1998. –608 s.
- 31.Davydov V.V. Vidy obobshcheniya v obuchenii. M.: 1972. – 424 s.
- 32.Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya: Ucheb.posobiye dlya studentov vyssh.ped.ucheb.zavedeniy. Rostov-n/D.: 1997. 476 s.
- 34.Ilyasov I.I. Obucheniye studentov deyatel'nosti ucheniya //Formirovaniye uchebnoy deyatel'nosti studentov. M.: 1989. S. 35-68.

- 35.Klimov Ye.A. Psixologiya: Uchebnik dlya shkolы. M.: 1997. –287 s.
- 36.Panibratseva Z.M. Metodika prepodavaniya psixologii. M.: 1971. –152 s.
- 37.Talizыna N.F. Upravleniye prosessom usvoyeniya znaniy. M.: 1984. –344 s.
- 38.Talызina N.F. Pedagogicheskaya psixologiya. Uchebn.posobiye. M.: 1998. – 288 s.
- 39.Elkonin D.B. Psixicheskoye razvitiye v detskix vozrastax. M.: Voronej. 1995. – 416 s.
- 40.Esaulov A.F. Aktivizasiya uchebno-poznavatelnoy deyatelnosti studentov. –M.: 1982. –223 s.

VIII. Ilmiy monografiyalar, maqolalar

- 41.Abdullayeva T. Milliy iftixor hissini tarbiyalash //Boshlang'ich ta'lim., 2002. 4-son.
- 42.Adizova T. Psixologik korrektsion ishlar. T.2000-126b.– 12–15 b.
- 43.Avesto va uning insoniyat taraqqiyotidagi o'rni. – T.: Fan, 2001. – 19 b.
- 44.Andreyeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. M., 1998,376 s.
- 45.Badmayev B.S.Psichologiya: kak yeye izuchit i usvoit.M.,1997.256 s.
- 46.Badmayev B.S. Psichologiya i metodika uskorennogo obucheniya.M., 1998.-272 s.
- 47.Badmayev Metodika prepodavaniya psixologii M.: 2001.-321.s.
- 48.Boboyev X., G'ofurov Z. O'zbekistonda siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy ta'limotlar taraqqiyoti. - T.: Yangi asr avlodi, 2001. - 141-144 b.
- 49.Vvedeniye v psichologiyu: Uchebnik dlya vyssh.shkolы/Под общ.red.A.V.Petrovskogo.-M., 1996. –493 s.
- 50.Voxidov M.. Bolalar psichologiyasi. T.1994-134b.
- 51.Goziyev E.G. Oliy maktab psichologiyasi. T, ToshDU, 1996 -212b
- 52.Davletshin M.G. Hozirgi zamon maktabining o'qituvchisi psichologiyasi. –T.: «O'zbekiston» 1999.- 123b.
- 53.Davletshin M.G.,Jalilova S.X. Oliy maktabda ta'lim jarayoni samaradorligining psichologik tomonlari. T.: 2001.
- 54.Karimova V. Psichologiya. T.2004-245b

- 55.Mamajonov B.. Tarbiya saboqlari. Toshkent, 2003, 125b.
- 56.Murodov M., Hakimov N., Ergashev A. Qadriyatnoma.– T.: G'.G'ulom nashriyoti, 2001. – 544 b.
- 57.Mamedov K.K., G.B.Shoumarov. Aqli zaif bola psixologiyasi. Toshkent, "O'qituvchi", 1994 -167b
- 58.Mamedov K.K, G.B.Shoumarov. Ruxiy rivojlanishi sustlashgan bolalar haqida. Toshkent, «O'qituvchi», 1995 -153b.
- 59.Nishonova Z.T. Psixologik xizmat. Ma'ruzalar matni. T, 2000.-198b.
- 60.Raxmatullayev M.A. Maktabda psixologik xizmatni tashkil etish. T. 2001-231b.

IX. Doktorlik, nomzodlik va magistrlik dissertatsiyalari

- 61.Ruxiyeva A.X. Psixologicheskiye osobennosti samoupravleniya uchebnoy deyatel'nostyu studentov. Avtoreferat. Dis.kand psix. nauk T.: 1993.-143c

X. Ilmiy-amaliy anjumanlar ma'ruza to'plamlari

- 62.Xakimov N.X. va b. Mintaqaviy iqtisodiyot va ekologiya. -T.: TDIU, 2006. -94 b.

XI. Gazeta va jurnallar

- 63.Xalq so'zi 2008 - 2011 yillar

XII. Virtual kutubxona elektron darsliklari va o'quv qo'llanmalari

- 65.Nishonova Z.T. Psixologik xizmat. Ma'ruzalar matni. T, 2000.-198b.
- 66.Jizzax Davlat Pedagogika instituti «Pedagogika va psixologiya » kafedrasining ma'ruza matnlari. 2009– 2011yillar.

XIII. Internet saytlari

<http://www.nuu.uz>

<http://www.istedod.uz>

<http://www.academy.uz>

ILOVALAR

1 - ilova

Diqqatni rivojlantirish va korreksiyalash usullari

Guruhiy mashg'ulotlar namunalari.

1- M A Sh G' U L O T:

Maqsad: kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ixtiyoriylik va e'tiborlilikni rivojlantirish.

V A Z I F A L A R;

- 1- Mushaklarni bo'shashtiruvchi mashqlar (izoterapiya elementlarini qo'shsa bo'ladi)
- 2- «Barini e'tiborga ol»
- 3- «Tartibni eslab qol»
- 4- «Buqalamun»
- 5- Mashg'ulotlar yakuni (kayfiyat rangi)

2- M A Sh G' U L O T:

Maqsad: Ixtiyoriylik, e'tiborlilik kabi diqqatning asosiy xossalarini rivojlantirish.

V A Z I F A L A R;

- 1- Mushaklarni bo'shashtiruvchi mashqlar (izoterapiya elementlarini qo'shsa bo'ladi)
- 2- «Boshni qo'lingni ko'tar.»
- 3- «To'xtamay qidir»
- 4- «Parchalarni birlashtir-butunini ko'rasan»
- 5- Mashg'ulotlar yakuni (kayfiyat rangi)

Shunga o'xshash 5-6 ta mashg'ulotlardan keyin quyidagi juftlikda bajariladigan o'yinlarni qo'shish maqsadga muvofiqdir

3- M A Sh G' U L O T:

Maqsad: Diqqat jamlanishini rivojlantirish

V A Z I F A L A R;

- 1- «Nasos va koptok»
- 2- «Diqqatni jamlashga mo'ljallangan mashqlar.»
- 3- «Ko'zgu»
- 4- «Dengiz sohilida»
- 5- Mashg'ulotlar yakuni (kayfiyat rangi)

4- M A Sh G' U L O T:

Maqsad: Diqqat jamlanishini rivojlantirish

V A Z I F A L A R;

- 1- «Nasos va koptok»
 - 2- «Diqqatni jamlashga mo'ljallangan mashqlar.»
 - 3- «Ko'zgu»
 - 4- «Dengiz sohilida»
 - 5- Mashg'ulotlar yakuni (kayfiyat rangi)
- 4- M A Sh G' U L O T:

Maqsad: Diqqat barqarorligini rivojlantirish; tovushlarga nisbatan bo'lgan diqqatni rivojlantirish.

V A Z I F A L A R;

- 1- «Osilgan-titilgan qo'g'irchoq»
- 2- «Diqqat» saroyiga sayohat.»
- 3- «Tingla va ijro et.»
- 4- Muzoterapiya elementlari.
- 5- Mashg'ulotlar yakuni (kayfiyat rangi)

Bundan keyin ham mashg'ulotlar shu tarzda davom etadi. Asosiy maqsad: diqqatning qaysidir bir xossasini rivojlantirish bo'ladi. Bolalar har bir yangi o'yinga to'yinishini alohida nazorat qilib borish kerak. Har bir mashg'ulotdan keyin bola tomonidan kayfiyatni belgilovchi rang tanlanadi, zero bu, yuqorida ta'kid etilgan to'yinish hissi xususidagi ma'lumotni berishi mumkin.

14-15ta mashg'ulotdan keyin mashqlarga o'z xatti-harakati nazoratini, urinishlarning irodaviy asoslarini tarkib toptiruvchi elementlarni kiritish ma'quldir.

Korreksion muolajalarning uchinchi, mustahkamlikni ta'min etib turuvchi bosqichi uyda, mustaqil ravishda yoki ishtiyoqmand ota-onalar boshchiligida davom ettiriladi.

Bunday mashg'ulotlar namunalarini pedagog (psixolog) yakka tartibdagi konsultasiyalarda beradi.

Ba'zi bir qarovsiz bolalarning psixologik xususiyati sirasiga o'ta faollik kiradi (ilmiy tilda - giperaktivlik deyiladi).

Bunday bolalar bilan ko'shimcha tarzda yana tarkib toptiruvchi bosqichning 5-10 kursini yakka tartibda o'tkazish darkor.

Dasturda tilga olingan o'yinlar tavsifi

Kayfiyatni ranglarda ifodalash.

Maqsad: Bolalarga o'z kayfiyatini ranglar orqali aks ettirishni o'rgatish.

Material: Guash, akvarel, oq qog'oz.

Pedagog bolalarga ranglarni ixtiyoriy tarzda tanlashni taqlif qiladi (rangli dog', chiziqlar tortiladi)

IZOh: qora va siyohranglar bolalarda tushkunlik, qo'rquv alomatlari borligidan dalolat beradi.

«Barini e'tiborga ol».

Turli 7-10ta predmetlar bir qatorga terilib, usti yopiladi. So'ng 10 lahzaga ularni ochib yana yopib qo'yish lozim. Bolaga bunda nimalar borligini sanab berish taqlif etiladi.

«sha predmetlarning usti yana 8-10 lahzaga ochilib, boladan ular qay tartibda terilganligi so'raladi.

Predmetlarning ikkitasini o'rnini almashtirib, bolaga yana 10 lahzaga ko'rsatiladi.

Keyin qaysi predmetlar o'rni almashganini payqagani so'raladi.

So'ng, predmetlarga ortiq ko'z yugurtirmagan holda, ularning qay biri qaysi rangda ekanini aytib berish taqlif qilinadi.

8 predmet ustma-ust terilib, boladan ularni pastdan yuqoriga hamda yuqoridan pastga qarab nomma-nom sanab o'tish so'raladi. Keyin ularni yonboshlatib, bir-biriga yaqin qilib yonma-yon terib, bir-birini ustiga qo'yib bolaga yigirma lahzadan ko'rsatilib, qaysi predmet qanday holda ekanini aytib berishi so'raladi.

«To'xtamay qidir»

10-15 lahza mobaynida atrofdagi bir xil rangdagi predmetlarni imkon qadar ko'proq ko'rish (bir xil o'lchamdagi, yoki bir xil shakldagi, bir xil materialdan yasalgan sh.o'.)

Berilgan signaldan so'ng bittasi ko'rganlarini sanay boshlaydi, qolganlari to'ldiradi.

«Tartibini eslab qol»

a) «yindagilarga 6-7ta rangli qalamlar ko'rsatiladi. 20 lahzadan keyin ular olib qo'yilib, qalamlarning joylashgan tartibi so'raladi.

B) 5-6ta bola ixtiyoriy tarzda safga tizilishadi. «yinni olib boruvchi bola 30-40 lahzaga ular tomonga qarab, yana ters o'girilgan holda, kim kimdan keyin turganini sanab beradi. Undan so'ng o'yinni olib boruvchi bola boshqasi bilan o'rni almashadi.

«Ko'zgu»

Maqsad: Sust bolalarga o'z faolligini namoyon qilishlariga imkon berish.

«yin. «yinni olib boruvchi tayinlanadi, qolgan bolalar-«ko'zgu» bo'lishadi. U «ko'zgu»larga qaraydi, ular esa uning hatti-harakatini aks ettiradilar.

Kattalar «aks»larning to'g'riligini kuzatishadi.

«Diqqat qasri»

Ikki bola 8 ga 8 hajmdagi kvadrat chizishadi (jami 64ta katak hosil bo'ladi.) Kvadratning yuqori qatori bo'ylab hamda chekka yon tomonini 1 dan 8 gacha tartib raqamlari yoziladi. Bir o'yinchi kvadrat ichidagi «Diqqat saroyini» belgilaydi (u bir katakda bo'ladi) hamda unga eltuvchi yo'lni chizadi. Yo'l har tomonga bo'lishi mumkin (balandga, pastga, yon tomonga). Faqatgina bir qoida bor: katak markazidan boshlanib, katak markazida tugaydi. Yo'l o'zini-o'zi kesib o'tishi mumkin emas. Birinchi o'yinchi o'zi solgan yo'lni 2- o'yinchiga 20-30 s. ko'rsatib, yashiradi. 2- o'yinchi o'z xotirasiga tayanib, 1- o'yinchining yo'lini o'z varaqasida belgilab boradi. Yo'l boshi va oxiri unga ko'rsatiladi. 2- o'yinchi qadam tashlashdan avval, uning koordinatasini aytadi (gorizontal va vertikal tartib raqamlari). To'g'ri bo'lsa, o'sha katakni belgilaydi, agar adashsa, 1- o'yinchi uning adashganini aytadi. Agar 2- o'yinchi «Diqqat saroyi»ga yetgunga qadar 5-ta xatoga yo'l qo'ysa, yutkazgan hisoblanadi. «yin tugashi bilan ular o'rin almashadilar

№	1	2	3	4	5	6	7	8
1								
2								
3								

4								
5								
6								
7								
8								

Korrektur sinovlar

1-vazifa. Qizchalar.

Qizchalar tasviri tushirilgan maxsus varaqalar taqlif etiladi. O'yin qoidasi:A)
qora (oq) tasma-bantikli qizchalarni sana.

B) qora soch va qora bantikli qizchalarni sanab ber.

V)oq sochli va qora bantikli.

G)qora soch va qora bantikli.

D).....qora soch va oq bantikli.

2-vazifa. Buzoqchalar.

Buzoqchalar tasviri tushirilgan maxsus varaqalar taqlif etila-di. o'yin qoidalari: A)
bir shoxli buzoqlarni sanab ber (ikki shoxli)

B) bir quloqli (ikki quloqli) buzoqlarni sanab ber.

V)bir shoxli, bir quloqlilarini (teskarisi).

Va boshqa variantlarda ham .

Vazifani asta-sekin murakkablashtiring (a,v,s.....)

3-vazifa. Raqqos odamchalar.

Yana maxsus varaqa taqlif qilinadi.

A) bir oyoqli odamchalarni belgila (chiz,bo'ya,sana)

B) qo'llarini yoyib, bir oyoqda turgan odamchalarni belgila(.....)

V) Oyoqlarini kerib, qo'llarini yoyib turgan odamchalarni belgila (..)

G) qo'l-oyoqlarini birday yoygan odamchalarni belgila (.....)

D) oyoqlarini juftlab, qo'llarini tushirgan odamchalarni belgila(.....). Boshqa variantlarda ham qo'llash mumkin.

Labirint.

Orolchada xazina yashirilgan. Unga yetish uchun labirintdan adashmay o'tish kerak. Labirintlardan adashmay o'tganlarga «xazina topar» unvoni beriladi.

Nasos va to'p.

Ikki kishi o'ynaydi. Biri katta damlanadigan to'p, ikkinchisi uni shishiradigan nasos. «To'p»ning dami yo'q. Oyoq qo'lini bo'shashtirib, yarim egilgan holda, boshini tushirib turadi. «Nasos» damlay boshlaydi, u har bir harakatini tovush chiqarib ifodalaydi, «to'p»ga asta «jon» kira boshlaydi. Sekin tik holga keladi, qo'llari ko'tariladi. To'p damlangandan keyin «nasos shlangi» tortib olinadi va «to'p» avvalgi holga, bo'shashib qaytadi. So'ng juftlik o'rin almashadi.

Dengiz sohilida.

Bolalar dengiz bo'yida o'ynashmoqda. Gohi to'xtab, engashib tosh terishadi, gohi toshlarni dengizga uloqtirishadi, gohi cho'milib bir-birlariga suv sachratishadi. Toshlarni osmonga otib, qaytib ilishadi, suvni chappilatishadi. To'yib cho'milib, o'ynab bo'lishganlaridan keyin, issiq qumga ko'milib yotishadi. Ko'zlarini oftobdan yashirishadi, xullas dam olishadi.

Tingla va ijro et.

Olib boruvchi bir necha harakatni aytib o'tadi, biroq o'sha hatti-harakatni qilib ko'rsatmaydi. Vazifani 1-2 marta takror aytishga ruhsat etiladi.

Bolalar olib boruvchi aytib o'tgan tartibda o'sha xatti-harakatni bajaradilar.

1. Boshni o'nga buring, to'grilang, engashtiring, ko'taring.
2. o'ng qo'lni ko'taring, chap qo'lni ko'taring, ikkisini ham tushiring.
3. Chapga buriling, o'tiring, turing.
4. o'ng oyoqni ko'taring, bir chap oyoqda turing; o'ng oyoqni qo'ying.

Parchalarni birlashtir, butunini ko'rasan.

Biron-bir rasmni kartonga yelimlab, o'n-o'n beshta bo'lak(parcha) qilib, qirqib chiqasiz. o'ynayotgan bola uni alohida qismlarini ko'rib turib, unda nimaning rasmi aks etganini aniqlab ko'radi va tahminini tekshirish maqsadida uni terib chiqadi.

Faqirlar.

Bolalar hind faqirlariga taqlid qilishadi. Gilamchaga o'tirib (bizda bu o'tirish «o'g'il bolacha» deyiladi) qo'llarini tizzasiga qo'yishadi, tirsaklari osilgan, bo'yin va bel mushaklari bo'sh, bosh egilgan, ko'zlar yumuq. Sokin musiqa sadolari ostida faqirlar orom oladilar.

Buqalamun. (Xameleon)

Avvaliga buqalamun nima ekani tushuntiriladi. U kaltakesakning bir turi bo'lib, atrofidagi muhitga qarab rangini o'zgartiradi (ko'zga tashlanmaslik uchun). Deylik, kulrang tosh ustida kulrang, qumlar orasida sarg'ish tusga kiradi. Keyin olib boruvchi birma- bir savol-javob qila boshlaydi: agar buqalamun maysalar ichiga tushib qolsa, qanday tusga kiradi? Agar qora qoya toshda o'tirgan bo'lsa-chi? Bolalar tez javob berishlari kerak, so'ng javoblar muhokama qilinadi.

o'yin musobaqa tarzida o'tadi. Avvaliga vaqt belgilanmaydi, biroq keyin qo'shimcha shart kiritiladi, ya'ni kim hammadan tez, to'g'ri javob bersa o'sha g'olib sanaladi.

Osilgan-titilgan qo'g'irchoq.

Osilgan-titilgan qo'g'irchoq
o'tirar devor ustida.

Osilgan-titilgan qo'g'irchoq
Yiqiladi uyqusida.

Bola oyoqlarini siljitmagan holda gavdasini o'nga, chapga buradi. qo'llari latta qo'g'irchoqning qo'llariday osilib turadi. «Yiqildi uyqusida» degan jumlani eshitishi bilan gavdasini keskin engashtiradi.

“KKIT” uslubi (SVOT-analiz, SWOT- analysis)

- **Kuchli tomonlar**
- **Kuchsiz tomonlar**
- **Imkoniyatlar**
- **To'siqlar**

<u>Kuchli tomonlar</u>	<u>Kuchsiz tomonlar</u>	<u>Imkoniyatlar</u>	<u>To'siqlar</u>
<u>bilimli</u>	<u>loqayd</u>	<u>olimpiada</u>	<u>masofa</u>
<u>xorijiy tillarni biladi</u>	<u>dangasa</u>	<u>chet elda o'qish</u>	<u>oilaviy sharoit</u>
<u>madaniyatli</u>	<u>uyquchi</u>	<u>sport inshootlari</u>	<u>soq'liqi yomon</u> <u>.....</u>